

EVV

XAVF-XATAR MAYDONIDA QALQONMIZ XALQ YONIDA

Gazeta 2004-yil 7-maydan
chiqa boshlagan



O'zbekiston Respublikasi
Favqulodda vaziyatlar
vazirligi nashri



Vaziyat

2026-YIL 27-AVGUST № 35 (1080)



35 yil
MUSTAQILLIGIMIZ
ABADIY BO'LSIN!

“YAGONA VATAN,
YAGONA XALQ BO'LIB,
YANGI HAYOT VA
KELAJAK YARATAMIZ!”



MA'NAVIY BOYLIK — TUGANMAS XAZINA

Ma'naviyat juda keng qamrovli tushuncha. Insonning odob axloqi, vijdoni halolligi, mehr-oqibati, adolatparvarligi, ezgulikka sadoqati, qadriyatlarga hurmati va shunga aloqador juda ko'p jihatlar inson ma'naviyatiga daxldor omillardir. Xo'sh, ma'naviyat insonda qanday shakllanadi? Insonning ma'naviy kamolotida qanday omillar muhim rol o'ynaydi?

Insonning asl tabiati va ichki dunyosi, shuningdek, ta'lim-tarbiya va jamoaviy muhit, oilaviy qadriyatlar va shunga daxldor boshqa tushunchalar inson ma'naviy kamolotida alohida ahamiyat kasb etadi. Inson tug'ilganda toza fitratda tug'iladi. O'sish, ulg'ayish, kamolga yetish davrida esa uning jismida bo'lgani kabi ruhiyatida, ongida va qalbida ham o'zgarishlar bo'ladi. Jamiyatga qarab fikrlaydi. Atrof-muhitni his qila boshlaydi. Mana shunda insonda o'ziga xos bo'lgan xarakter, ma'naviy dunyosi shakllanadi. Bir oilada farzand dunyoga kelar ekan uning ham jismidan sog'lom, ham ma'nan yetuk bo'lib ulg'ayishida atrofdagi insonlarning, xususan, oila va yaqinlarning o'rni katta. Qush uyasida ko'rganini qiladi, degan maqol bejiz aytilmagan. Farzand ota-onaning fe'l-atvorini o'zlashtiradi, ularga taqlid qiladi, ularning tarbiyasini butun umrga o'zida mujassamlashtiradi.

Chiroyli xulq, samimiy qalb, yuksak ma'naviyatni shakllantirish uchun tarbiyada nimalarga ko'proq ahamiyat berish lozim? Buning uchun milliy, oilaviy qadriyatlarga sadoqat, ilmiy bo'lishga intilish, kitobxonlik madaniyatini, kitob o'qishga, ilm o'rganishga ehtiyoj hissini shakllantirish, ezgulikka intilish, haqiqatparvarlik va adolat kabi insoniy tushunchalar tarbiyada ustuvor bo'lmog'i kerak.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda ma'naviyat tushunchasi inson va jamiyat hayotida alohida ahamiyat

kasb etmoqda. Ma'naviyat insonning ichki dunyosi, axloqiy qarashlari, bilim va tafakkuri, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga munosabatini ifodalovchi keng tushunchadir.

Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali dunyoning turli hududlarida yuz berayotgan voqealar, turli madaniyat va qarashlar qisqa vaqt ichida keng ommaga yetib bormoqda. Bunday sharoitda insonning ma'naviy dunyosi, mustaqil fikrlashi va axborotni to'g'ri tahlil qila olishi muhim ahamiyatga ega. Zero, ma'naviy jihatdan yetuk inson har qanday axborotni ko'r-ko'rona qabul qilmaydi, uning mazmunini tahlil qiladi va o'z qarashlari asosida xulosa chiqaradi.

Ma'naviyat, avvalo, insonning o'zligini anglashida namoyon bo'ladi. O'z tarixini, tilini, adabiyoti va milliy qadriyatlarini bilgan insonda Vatanga, xalqiga va jamiyatga nisbatan mas'uliyat hissi shakllanadi. Shu bilan birga, zamonaviy ma'naviyat milliy qadriyatlar bilan bir qatorda insonparvarlik, bag'rikenglik, adolat, halollik, ilmga intilish kabi umuminsoniy qadriyatlarni ham o'zida mujassam etadi. Ayniqsa, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Chunki yoshlarning dunyoqarashi va hayotga munosabati jamiyatning kelajakdagi taraqqiyotini belgilaydi.

Bugun jamiyatimizda ma'naviyatning ko'rinishlarini, avvalo, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, kattalarga ehtirom, kichiklarga

g'amxo'rlik, oilaga sadoqat, Vatanga muhabbat, ilm-ma'rifatga intilish kabi fazilatlarda ko'rish mumkin. Ayniqsa, yoshlarning ta'lim olishga, zamonaviy bilim va kasblarni egallashga bo'lgan qiziqishining ortib borayotgani jamiyat ma'naviy hayotidagi ijobiy o'zgarishlardan biridir.

Ta'lim tizimi ham ma'naviyatni rivojlantirishning asosiy omillaridan. Bu jarayonda o'quvchiga faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, unda mustaqil fikrlash, insonparvarlik, mas'uliyat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni shakllantirish zarur. Ayniqsa, adabiyot, tarix, ona tili va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar yoshlarning milliy o'zligini anglashida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Badiiy asarlar orqali insoniy fazilatlar, ezgulik va yovuzlik, vijdon, or-nomus, sadoqat kabi tushunchalar hayotiy misollar asosida anglanadi.

Ma'naviyatni yuksaltirishda kitobxonlik va badiiy adabiyotning o'rni ham alohida ahamiyatga ega. Kitob inson tafakkurini boyitadi, uning dunyoqarashini kengaytiradi va ma'naviy ehtiyojlarini shakllantiradi. Mumtoz va zamonaviy adabiyot namunalarini mutolaa qilish orqali yoshlar milliy tarix, madaniyat va qadriyatlar bilan yaqindan tanishadi. Shu bilan birga, jahon adabiyoti namunalarini o'rganish boshqa xalqlarning madaniyati va dunyoqarashiga hurmat bilan qarashga yordam beradi.

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari va raqamli texnologiyalar ham ma'naviy tarbiyaning kuchli

vositasiga aylanmoqda. Internet imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish orqali ilmiy, ma'rifiy va madaniy ma'lumotlarni keng ommaga yetkazish mumkin. Buning uchun yoshlarni axborot oqimidan ongli ravishda foydalanishga, yolg'on va ishonchsiz ma'lumotlarni haqiqiy axborotdan farqlashga o'rgatish lozim.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviyat jamiyatning ichki ruhiy va axloqiy qiyofasini belgilaydigan muhim mezonidir. Uni rivojlantirish birgina ta'lim muassasasi yoki muayyan tashkilotning vazifasi emas, balki oila, ta'lim, mahalla, madaniyat va ommaviy axborot vositalari hamkorligini talab qiladigan uzluksiz jarayondir. Ma'naviy barkamol, mustaqil fikrlaydigan va milliy qadriyatlarga hurmat bilan qaraydigan avlodni tarbiyalash jamiyatning barqaror taraqqiyoti uchun muhim shartlardan biridir. Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda ma'naviyat jamiyat taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Insonning dunyoqarashi, axloqiy mezonlari, Vatanga, oilaga, jamiyatga va atrof-muhitga bo'lgan munosabati uning ma'naviy qiyofasini belgilaydi. Shu jihatdan ma'naviyat faqat nazariy tushuncha emas, balki insonning kundalik hayoti, xulq-atvori, qarashlari va ijtimoiy faoliyatida namoyon bo'ladigan muhim qadriyatdir.

Yusufjon IBROHIMOV,
Xoja Buxoriy o'rta maxsus islom ta'lim muassasasi talabasi

KO'LNING CHEKINISHI BA'ZAN SUV KAMAYGANDA KO'RINADI. TABIIY-KI, SUV ORTGA CHEKINGAN JOYDA BUTUN BIR MUVOZANAT O'ZGARADI: BALIQ ZAXIRASI KAMAYADI, QUSHLARNING YASHASH MUHITI QISQARADI, TUPROQ SHO'RLANADI, CHANG KO'PAYADI, MAHALLIY AHOLINING TURMUSH TARZI VA DAROMAD MANBALARIGACHA TA'SIR KO'RSATADI. SHU MA'NODA KO'LLAR HOLATI – MUAYYAN HUDUDDA SUV RESURLARIDAN QAY DARAJADA OQILONA FOYDALANILAYOTGANINI KO'RSATIB TURUVCHI O'ZIGA XOS TABIIY MEZONDIR.

KO'LLAR – SUV XAVFSIZLIGINING TIRIK KO'ZGUSI



BMT Bosh Assambleyasi 2024-yil 12-dekabrda qabul qilingan rezolyutsiya bilan 27-avgustni Butunjahon ko'llar kuni deb belgiladi. 2025-yildan boshlab nishonlanayotgan mazkur sana ko'llar va ular bilan bog'liq ekotizimlarni muhofaza qilishga xalqaro e'tiborni kuchaytirishni ko'zda tutadi. E'tiborlisi, rezolyutsiya loyhasining hammualliflari qatorida O'zbekiston ham bo'lgan.

Bu bejiz emas. O'zbekiston va butun Markaziy Osiyo Orol fojiasi orqali suv ekotizimidagi muvozanat buzilishining qanchalik katta ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlariga olib kelishini o'z tajribasida ko'rdi.

Bir paytlar dunyodagi eng yirik ko'llardan biri bo'lgan Orolning katta qismi daryo suvlarining keng miqyosda sug'orishga yo'naltirilishi natijasida quridi. Uning o'rnida Orolqum cho'li paydo bo'ldi. Bu faqat suv havzasining qisqarishi emas, balki butun mintaqada tabiiy muvozanatning izdan chiqishi edi. Qurigan tubdan ko'tarilayotgan tuz va chang, yer degradatsiyasi, biologik xilma-xillikning kamayishi hamda aholi salomatligiga ta'sir kabi muammolar uning oqibatlari hanuz davom etayotganini ko'rsatmoqda.

So'nggi yillarda Orolbo'yida ushbu oqibatlarni yumshatish maqsadida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. 2026 yil iyul holatiga ko'ra, Orol dengizining qurigan tubida 2 million gektardan ziyod maydonda o'rmonzorlar barpo etilgan. Saksovul va iqlimga chidamli boshqa o'simliklarni ko'paytirish tuz-chang ko'chishini cheklash, yangi ekotizim shakllanishiga ko'maklashish va hududning iqlimga chidamliligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Biroq Orol sabog'ining eng muhim jihati faqat qurigan tubni ko'kalamzorlashtirishda emas. Asosiy xulosa shundaki, ko'lni uni to'yintiruvchi daryolar, yerlar va inson faoliyatidan ajratgan holda muhofaza qilib bo'lmaydi. Ko'lning taqdiri ko'pincha uning qirg'og'ida emas, yuzlab kilometr yuqorida – dalalarda, kanallarda, shaharlarda va suvdan foydalanish bo'yicha qabul qilinayotgan qarorlarda hal bo'ladi.

Bu masala iqlim o'zgarishi sharoitida yanada dolzarblashmoqda. Ekspert baholariga ko'ra, 2040-yilga borib Orol havzasida suv tanqisligi qariyb ikki baravar oshib, yiliga 20 milliard kub metrga yetishi mumkin. Bunday sharoitda suvni tejash nafaqat iqtisodiy, balki ekologik xavfsizlik masalasiga ham aylanadi.

2026-yil fevral holatiga ko'ra, O'zbekistonda suv tejovchi texnologiyalar 2,6 million gektar yoki sug'oriladigan yerlarning 60 foizida joriy etilgan. Buning natijasida yiliga 2,5 milliard kub metr suv tejashga erishilmoqda. Ammo keyingi bosqichda yana bir muhim mezon paydo bo'lishi kerak: tejalgan suvning tabiiy ekotizimlar uchun samarasi qanday?

Zero, iqtisod qilingan resurs yana to'liq qo'shimcha iste'molga yo'naltirilsa, daryo deltalari, ko'llar va suv-botqoq hududlar kutilgan ekologik manfaatni his qilmasligi mumkin. Shu sabab suvdan foydalanish samaradorligini baholashda "qancha suv tejaldi?" degan ko'rsatkich bilan birga "ekotizimlar uchun qancha suv saqlab qolindi?" degan mezonni ham bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiq.

O'zbekistonda Orol tashqari ham ekologik ahamiyati yuqori bo'lgan suv havzalari mavjud. Dengizko'l, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi, To'dako'l va Quyimozor suv omborlari. Sudochoye ko'llar tizimi hamda Jiltirbas ko'li Ramsar konvensiyasi doirasida

xalqaro ahamiyatga ega suv-botqoq yerlar sifatida e'tirof etilgan. Ular ko'chib yuruvchi qushlar, baliq zaxiralari, o'simlik va hayvonot dunyosi uchun muhim yashash muhiti, mahalliy aholi uchun esa iqtisodiy resurs hisoblanadi.

Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi buning yaqqol misolidir. Uni faqat suv sathi bilan baholash yetarli emas. Suvning minerallashuvi va sifati, baliq zaxirasi, qirg'oqbo'yi o'simliklari, qushlar populyatsiyasi va inson faoliyatining ta'siri birgalikda kuzatilishi lozim.

Shu nuqtayi nazardan, amaldagi ekologik monitoring tizimi doirasida ko'llar bo'yicha ochiq raqamli monitoring modulini shakllantirish maqsadga muvofiq. Unda suv sathi, minerallashuv, ifloslanish, biologik xilma-xillik va qirg'oqlar holati kabi asosiy ko'rsatkichlar muntazam yangilanib, jamoatchilik uchun tushunarli shaklda taqdim etilishi mumkin. Sun'iy yo'l-dosh kuzatuvlari, avtomatik stansiyalar va raqamli xaritalar esa salbiy o'zgarishlarni muammo keskinlashmasidan oldin aniqlash imkonini beradi.

Yana bir muhim yo'nalish – har bir yirik ko'l va suv-botqoq hudud uchun ekologik barqarorlik ko'rsatkichlarini belgilash. Masalan, Aydar-Arnasoyda suv sathidan tashqari suv sifati, baliq zaxiralari va qushlar soni, Sudochoyda esa suv rejimi va suv-botqoq ekotizimi holati kabi mezonlar doimiy baholanishi mumkin. Bu ekologik qarorlarni muammo keskinlashgandan keyin emas, oldindan qabul qilishga yordam beradi.

Tabiatni muhofaza qilishni mahalliy aholi manfaati bilan bog'lash ham muhim. Barqaror baliqchilik, ekologik turizm, qo'riqlanadigan hududlar atrofida xizmat ko'rsatish va "yashil" ish o'rinlarini rivojlantirish aholining ko'l ekotizimini saqlashdan bevosita manfaatdor bo'lishini ta'minlaydi. Tabiat muhofazasi mahalliy aholi uchun faqat cheklov emas, daromad va rivojlanish imkoniyatiga aylansa, uning samarasi ham barqaror bo'ladi.

Shu bilan birga, ko'llarni boshqarishda butun suv havzasi tamoyili ustuvor bo'lishi zarur. Daryoda, kanalda yoki dalalarda qabul qilingan qaror quyi oqimdagi ko'lga ta'sir qiladi. Shu bois suv taqsimotida iqtisodiy ehtiyoj bilan bir qatorda tabiiy ekotizimning minimal suv talabi ham hisobga olinishi lozim.

Bu vazifalar Barqaror rivojlanish maqsadlarining bir nechta yo'nalishini birlashtiradi: toza suv va sanitariya – BRM 6, barqaror shahar va hududlar – BRM 11, iqlim o'zgarishiga qarshi choralar – BRM 13, quruqlik ekotizimlarini muhofaza qilish – BRM 15. Ammo ularni alohida raqamlar emas, bir-biriga bog'liq yagona tizim sifatida ko'rish muhim. Butunjahon ko'llar kuni bizga yana bir haqiqatni eslatadi: ko'l – shunchaki suv zaxirasi yoki tabiat manzarasi emas. U jamiyatning suvga, yerga va kelajakka munosabatini aks ettiruvchi tirik ko'zgudir.

Orol fojiasi kechiktirilgan qarorning narxi qanchalik baland bo'lishini ko'rsatdi. Endi vazifa – bu saboqni boshqa suv havzalarida takrorlamaslik, muammoni oqibatlari ko'ringanidan keyin emas, uning dastlabki belgilari paydo bo'lganidayoq chora ko'rish.

Ko'lni saqlash – faqat qirg'oqdagi suvni saqlash emas. Bu butun havzani, undagi tabiatni va inson hayotini birgalikda asrash demakdir.

Jahongir ISAYEV,
"Barqaror rivojlanish
markazi" NNT bo'lim boshlig'i

MAMLAKATIMIZDA
ISTIQLOLNING 35 YIL-
LIGI “YAGONA VATAN,
YAGONA XALQ BO‘LIB,
YANGI HAYOT VA KELA-
JAK YARATAMIZ!” DEGAN
BOSH G‘OYA ASOSIDA
NISHONLANMOQDA.
QUTLUG‘ BAYRAMNING
BU G‘OYASI QALBIMIZ
VA SHUURIMIZNI IL-
HOMLANTIRYAPTI, DE-
SAK ASLO ADASHMAGAN
BO‘LAMIZ.



“MEN DUNYONI NIMA QILDIM, O‘ZING YORUG‘ JAHONIM!”

[Mustaqillikdan Yangi O‘zbekistongacha bosib o‘tilgan shonli yo‘l...]

Mustaqillik – barcha yutuqlarimizdan-da a‘lo yutug‘imiz, barcha marralarimiz poydevori, erkin hayotimizning asl kafolati, ezgu orzularimiz va intilishlarimizni ta‘minlaydigan buyuk ne‘matdir.

Mazkur shonli sana nafaqat tarixiy yo‘lga nazar tashlash, balki istiqbolni belgilash, yangi maqsadlarni ko‘zlash uchun ham nihoyatda muhim. Zero, ayni paytda yurtimizda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mustaqilligimizni mustahkamlash va Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida amalga oshirilayotgan ulkan islohotlar har birimizning hayotimizda, kayfiyatimizda, shahar va qishloqlarimizdagi o‘zgarishlarda yaqqol aks etmoqda.

So‘nggi yillardagi o‘zgarishlarni va yangilanishlarni bir-bir ko‘nglimiz ko‘z-gusidan o‘tkazsak, chindan ham bugun yuksalishning yangi davrini boshdan kechirayotganimizga guvoh bo‘lamiz. Hozirgi O‘zbekiston va o‘zbek xalqi kechagidek emas. Fitratlar, fikratlar, ulkan maqsadlar yo‘li yangilanib bormoqda.

Dastlab ba‘zi birovlariga erish tuyulgan “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi ayni paytda davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida asosiy ilhomlantiruvchi, yurtdoshlarimizni bir maqsad astrofida birlashtiruvchi kuchga aylanib ulgurdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘rtaga tashlagan bu g‘oyaning asl mohiyatini anglay boshladik. Va bu anglov avvalo o‘z ruhiyatimiz, ongimiz va qalbimiz bilan bog‘liq ekanini ham tushuna boshladik. Davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ijtimoiy sohalar va tashqi siyosatda shiddatli, izchil islohotlar jarayoni kechmoqda.

Oddiy xalq dardini tinglamay qo‘ygan mansabdorlarning-da ish tutumi o‘zgaradi. “Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak”, degan tamoyil davlat boshqaruvining asosiy mezoniga aylandi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya esa inson huquq va erkinliklarini kafolatlaydigan, demokratik davlatchilik asoslarini mustahkamlaydigan muhim huquqiy asos bo‘ldi. Ne asrlik armonlarimizni o‘zida ifodalagan bu huquqiy qomusimiz biz uchun nihoyatda

qadrlı, hayotiy hujjatga aylanib bormoqda.

Dunyo ayvonida kechayotgan ijtimoiy-siyosiy voqealarga idrok ko‘zi bilan qarang: geosiyosiy taranglik, murosasizlik va ba‘zi mintaqalarda o‘zaro ishonchning yo‘qolib borayotgani ko‘plab mamlakatlarning barqaror rivojlanishi uchun jiddiy to‘siq bo‘lmoqda. Mana shunday murakkab vaziyatda davlatimiz rahbarining siyosiy oqilligi bilan O‘zbekiston diplomatiyasida o‘ziga xos, milliy qadriyatlarimizga hamohang manfaatli muloqot uslubi shakllandi. Shavkat Mirziyoyev shaxsi dunyo rahbarlari safida tashabbuskor va ilmparvar prezident fenomeni sifatida tanila boshladi.

Ayni paytda xalqaro hamjamiyatda do‘stlarimiz, Prezidentimiz siyosatini qo‘llab-quvvatlayotgan hamkorlarimiz tobora kengayib borayotgani quvonarlidir.

“ Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning o‘ziga xos tashabbuslari Markaziy Osiyoda tinch, barqaror hayot tarzi va bunyodkorlik muhitini mustahkamlashga katta hissa qo‘shmoqda. Barcha sohalardagi ko‘p yillik masala va muammolarga yechim topilmoqda. Suvdan foydalanish, energetika, transport kommunikatsiyalari kabi ustuvor tarmoqlarni Markaziy Osiyo mamlakatlari birga rivojlantirmoqda.

Qulay va jozibador investitsiyaviy muhit qanday rivojlanadi? Albatta, mamlakatda ochiqlik siyosati amalga oshirilsa... Ushbu muhitning e‘tiborga molik jihati minglab yangi ish o‘rinlarini yaratishga keng yo‘l ochiladi.

O‘tgan qisqa davrda soliq tizimi sodalashtirilgani, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berilgani ham e‘tiborga molikdir. Valyuta liberallashtirilib, tashqi savdoning erkinlashgani xorijiy investitsiyalar oqimini ko‘paytirdi. Qishloq xo‘jaligida

yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, fermer xo‘jaliklari uchun bozor mexanizmlarini joriy etish islohotlarning asosiy yo‘nalishiga aylangani ham katta yutug‘imizdir.

Har qanday mamlakat rivoji ta‘lim tizimidagi islohotlar ildiziga bog‘liqdir. 11 yillik umumiy o‘rta ta‘lim tiklangani, yangi maktab va oliy ta‘lim muassasalari ochilgani, xorijiy universitetlarning filiallari faoliyat yuritayotgani ham ma‘rifiy rivojlanishning e‘tirofli jihatlaridir. Buni qarangki, maktabgacha ta‘lim qamrovi 2016 yildagi 27 foizdan 76 foizga, oliy ta‘limga qamrov esa 9 foizdan 42 foizga yetdi.

Jahon tibbiyot maydonida har daqiqa o‘zgarishlar va yangilanishlar yuz berayotgan paytda bizning tibbiyot jonkuyarlari ham izlanishda davom etishmoqda. Sog‘liqni saqlash sohasida tibbiy muassasalarni modernizatsiya qilish, aholini sifatli tibbiy xizmat bilan ta‘minlashga qaratilgan dasturlar amalga oshirilmoqda.

Ijtimoiy himoya tizimida “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” kabi yangi tizimlar aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashda muhim o‘rin tutmoqda. Ijtimoiy himoya milliy agentligi boshchiligidagi ijtimoiy yordam va xizmatlar ko‘rsatishning samarali tizimi yo‘lga qo‘yildi. Endilikda ehtiyojmand odamlar birovning vaqtinchalik yordamiga erishishi emas, doimiy daromad olib keluvchi o‘z sarmoyasiga ega bo‘lishi kerakligi ko‘zda tutilmoqda.

Yo‘llar, energiya tarmoqlari, ichimlik suvi va kommunikatsiyalar rivojlanmoqda. Yangi uy-joy dasturlari bilan bog‘liq olamshumul loyihalar amalga oshirilib, yuz minglab oilalar zamonaviy xonadonlarga ega bo‘lmoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, yangi shahar massivlari, ko‘p qavatli uy-joylar, yo‘l va ko‘priklar – bularning barchasi mustaqillik Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi amalga oshirilayotgan taraqqiyot yo‘li sharofati bilandir.

– Qonun ijodkorligi jarayoni ham faol rivojlanmoqda, – deydi Oliy Majlis

Qonunchilik palatasi Spikerining o‘rinborsari Rahimjon Hakimov “Yangi O‘zbekiston – mustaqillikni mustahkamlash va taraqqiyot yo‘li” sarlavhali maqolasida. – Ayniqsa, so‘nggi 8 yilda islohotlarning huquqiy asosini ta‘minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatli himoya qilishga qaratilgan parlamentning qonun ijodkorligiga doir ishi ham miqdor, ham sifat nuqtayi nazaridan sezilarli darajada faollashdi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasida qonun loyihalarini ko‘rib chiqishda izchil o‘sinh tendensiyasi kuzatilmogda.

Ha, Istiqlol tufayli biz erkin va farovon hayot qurish yo‘lidan bormoqdamiz. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar mustaqillikning amaliy samarasi, uning xalqimiz hayotidagi chinakam qadriyatga aylanganidan dalolatdir.

Men o‘zbekman, yurtimning asl farzandiman degan inson borki, islohotlar qizg‘in olib borilayotgan bu damlarda Yangi O‘zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish uchun o‘z hissasini qo‘shishga harakat qiladi. Davlatimiz rahbari ta‘kidlaganidek, kelgusida Yangi O‘zbekiston davlati, Yangi O‘zbekiston jamiyati buyuk tariximizni yangi, yanada yuksak Uyg‘onish davri bilan bog‘laydigan mustahkam ko‘priklar bo‘lib xizmat qiladi.

Bunday ulug‘ vazifaning esa shartlari va mezonlari ko‘p. Ammo eng muhim va hal qiluvchi omil – bu demokratik islohotlar yo‘lidir. Shu bois xalqimiz manfaatiga to‘la javob beradigan bu yo‘ldan hech qachon ortga qaytmaymiz. Qanchalik qiyin va mashaqqatlarga to‘la yo‘l bo‘lmasin biz hamisha oldinga qarab boramiz. Birinchi va ikkinchi Renessansda daho sanalgan ulug‘ ajdodlarimiz haqqi, yangilikka ishtiyoqmand jadid bobolarimiz hurmati hamisha dadillik va shijoatni qo‘ldan boy bermay, O‘zbekiston degan davlat ravnaqi uchun yashaymiz. Zero, O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf aytganidek, “Men dunyoni nima qildim, o‘zing yorug‘ jahonim, o‘zing mening ulug‘lardan ulug‘imsan, Vatanim.”

O‘ttiz besh yillik shonli dovoning, shodiyonang muborak bo‘lsin, jonajon O‘zbekistonim!

Muxtasar TOJIMAMATOVA,
O‘zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a‘zosi

Poytaxtimiz fuqarolari va mehmonlari xavfsizligini ta'minlash, ularni turli ko'rinishdagi ofatlardan muhofaza qilish uchun Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi maxsus yong'in-qutqaruv otryadi xaloskorlari o'z xizmat burchlarini sidqidildan o'tab, tun-u kun xizmatga shay turadilar. Biror ko'ngilsiz hodisa ro'y bergudek bo'lsa, sanoqli daqiqalar ichida voqea joyiga yetib keladilar. Bu borada suvda qutqaruv guruhi g'avvoslarining beminnat xizmatlari tahsinga loyiq.

Qahramonimiz – Toshkent shahar FVBB Maxsus yong'in-qutqaruv otryadi suvda qutqaruv guruhi boshlig'i Baxtiyor Nasmetov ham fidoyi qutqaruvchi-g'avvoslarimizdan. Salkam yigirma bir yildirki, insonlar xavfsizligini ta'minlashdek, ezgu ishlarni amalga oshirib, ko'pchilikning duosini olib kelmoqda.

Nasmetov Baxtiyor Umarovich 1983-yil 5-mart kuni Toshkent viloyatining Qibray tumanida tug'ilgan. 2000-yilda Toshkent shahridagi 16-kasb-hunar kollejni tugatgan. 2002-2004-yillarda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar safida muddatli harbiy xizmatni o'tagan. 2005-2006-yillarda FVV Maxsus tez harakat qiluvchi otryadning "Chorvoq" suvda qutqaruv stansiyasida qutqaruvchi-g'avvos, 2006-2007-yillarda Toshkent shahar FVB suvda qutqaruv guruhi qutqaruvchi-g'avvosi, 2007-2010-yillarda usta qutqaruvchi-g'avvos, 2020-yildan hozirgi vaqtga qadar Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar bosh boshqarmasi yong'in-qutqaruv otryadi qutqaruvchi-g'avvosi sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.

2011-yilda FVVning "Esdalik nishoni", 2015-yilda esa Prezidentimizning farmoniga ko'ra, "Sodiq xizmatlari uchun" medali bilan munosib taqdirlangan.

– Harbiy xizmatni yakunlashimga sanoqli kunlar qolganda o'zimga o'zim savol berdim, – deydi biz bilan suhbatda Nasmetov. – Xo'sh, yigitlik burchingni namunali o'tab, ota-onang bag'riga kelib, ular bilan diydorlashding. Qarindosh-urug', yaqinlaring bilan salomlashding. Sinf-doshlaring va boshqa do'st-u birodarlaring bilan birma-bir uchrashding. Ana-mana deguncha ikki-uch oy o'tib ketadi. Keyin qanday yumushlar bilan shug'ullanasan? Uylangach, bola-chaqangni qaysi hunaring bilan boqasan?

Insonlarga nafi tegadigan, xayrli va savob ishlari tufayli odamlar duosini oladigan kasbni tanlash fikri menga tinchlik bermasdi. Ana shu niyatda 2005-yilda FVV tizimiga ishga kirdim.

– Baxtiyor Nasmetov o'ta kamtar va og'ir-bosiq yigit, – deydi Yakkasaroy tumani Favqulodda vaziyatlar bo'limi Maxsus qutqaruv otryadi komandiri, katta leytenant Hasan Abdug'afurov. – U zimmasiga yuklatilgan vazifa va topshiriqlarni sidqidildan tezkorlik bilan bajaradi. Baxtiyor akaning o'z ustida ishlab o'ttirgan tajriba va mahorati, xulqi va odobi hisobga olinib, boshqarma rahbariyati tomonidan suvda-qutqaruv guruhi boshlig'i lavozimiga tayinlangan.



2010-yilning 18-fevral kuni bir voqeaning shohidi bo'lgandik. Qish fasli oxirlab borayotgan bo'lsa-da, havo harorati anchagina sovuq edi. Shu kuni kunduzi soat 14:30 lar atrofida Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi tezkor navbatchilik qismiga bir fuqaro qo'ng'iroq qilgan. Uning aytishiga qaraganda, Alisher Navoiy ko'chasidan oqib o'tuvchi Anhor kanaliga ikki kishi tushib, oqib ketayotgan ekan. Shu zahoti shay holatda turgan qutqaruvchi-g'avvoslar jabrlanganlar hayotini saqlab qolish maqsadida o'zlarini suvga otishdi. Ular dastlab ayolni, keyin fuqaro Aziz Aytboyevni suvdan olib chiqib, chinakam xaloskorlik yordamini ko'rsatishdi.

Agar bir necha soniya kechikilsa, ularning hayotini saqlab qolish dargumon edi. O'sha vaqtda ikki inson hayotining saqlab qolinishida bevosita qutqaruvchi-xaloskorlar – Baxtiyor Nasmetov va Sanjar Xolmatovning hissasi katta bo'lgandi. Suvda cho'kish holatlari bilan bog'liq aksariyat chaqiruvlar Baxtiyorning ishtirokisiz o'tmagan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Qaysidir yili poytaxtimizning Yunusobod tumani hududida joylashgan "O'zekspomarkaz" atrofidan oqib o'tuvchi "Bo'zsuv" kanalining o'rtasidagi orolchada odam yotganligi to'g'risida tezkor navbatchilik qismiga xabar tushgandi. Shu zahoti 5 nafar qutqaruvchi-g'avvoslarimiz jihozlangan avtoullovda voqea joyiga yetib kelishdi. Tajribali xaloskor g'avvoslarning sa'y-harakatlari tufayli fuqaro Xudoybergan Ibrohimov sog'salamat

olib chiqilib, hayoti saqlab qolindi. Qutqaruvchi-xaloskorlarning orasida suv-qutqaruv guruhi komandiri, xizmatchi Baxtiyor Nasmetov ham bor edi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Qahramonimiz qutqaruv otryadining turli lavozimlarida 20 yildan ortiq xizmat qilib, boy amaliy tajriba o'ttirmagan. U egallab turgan lavozimida mehnatsevar, tashabbuskor va talabchan xodim sifatida o'zini ijobiy tomondan ko'rsatgan. Shaxsiy tarkib o'rtasida ijro intizomini mustahkamlashga va unga qat'iy rioya qilishga odatlangan. Xizmatchi hamkasblar orasida ishchan, xizmat faoliyatida yo'l-yo'riqlar ko'rsatib, bilim saviyasi, jangovar hamda jismoniy tayyorgarligini oshirishga katta e'tibor qaratib kelmoqda.

U fuqarolar xavfsizligini ta'minlashda faol ishtirok etib, poytaxtimizda o'tkazilayotgan madaniy-omaviy tadbirlarda, boshqarma miqyosida o'tkazilayotgan amaliy taktik o'quv mashg'ulotlarida faol ishtirok etib, o'z safdoshlariga o'rnak bo'layotir.

Toshkent shahar hududida favqulodda vaziyatlar va suvda cho'kish holatlarida xavfsizlikni ta'minlash maqsadida fuqarolar bilan targ'ibot tashviqot ishlari tashkillashtirgan. Qahramonimiz 5 nafar cho'kayotgan odamni qutqarib, jabrlanuvchilarning qarindoshlari olqishiga sazovor bo'lgan.

Jumladan, 2019-yilning 11-mart kuni Mirzo Ulug'bek tumani Qizil suv ko'chasi, 112-xonadon, 2019-yilning 13-iyul kuni Yashnobod tumani, Parkent 2-tor ko'chasi 1-uy, 20-xonadon,

2019-yilning 22-sentabr kuni Mirzo Ulug'bek tumani, Muhammad Yusuf ko'chasi 1a uy, 2019-yilning 31-oktabr kuni Mirzo Ulug'bek tumani, Muzrobd ko'chasi 33-uy, 2019-yilning 8-noyabr kuni shu tumandagi Mirzo Ulug'bek ko'chasi 59-uy, 39-xonadon va 2020-yil 18-yanvar kuni o'z vaqtida yetib borib zarur kuch va vositalarni yetkazganligi natijasida xonadon ichida qolib, qulflanib qolgan fuqarolarga o'z vaqtida yordam bergan.

Yosh xodimlarni ona Vatanga muhabbat, o'z xizmat burchiga sadoqat ruhida tarbiyalashda o'zining xizmat jarayonida o'ttirmagan bilim va boy tajribalaridan foydalangan holda, o'rnak bo'lib, ularga kasbiy mahorat sirlarini puxta o'zlashtirishda va amaliyotga tatbiq etishlarida munosib hissasini qo'shib kelmoqda.

Darhaqiqat, xizmatchi Baxtiyor Nasmetovning tinimsiz mehnati beiz ketmadi. 2015-yilda Prezidentimizning farmoni bilan "Sodiq xizmatlari uchun" medali bilan munosib taqdirlandi.

– Kamtarona mehnatlarim hisobga olinib, menga berilgan bu yuksak mukofotni zimmamga yuklatilgan mas'uliyat, deb bilaman. Ishonchni oqlashga va bor imkoniyatlarimni ishga solishga, o'z ustimizda ishlab, tajriba va mahoratimni oshirishga, qidiruv-qutqaruv ishlarining sifati va samaradorligini yanada yaxshilashga undaydi, – deydi qahramonimiz.

Azamat SUYUNOV,
O'zbekiston Jurnalistlar
uyushmasi a'zosi



Muloqotlar davom etadi

Payshanba
– Yoshlar kuni
munosabati

bilan Sharof Rashidov tumanida joylashgan harbiy qismda muddatli harbiy xizmatchilar bilan “Rahbar va yoshlar” uchrashuvi tashkil etildi.

Ochiq va samimiy muloqot ruhida oʻtgan uchrashuvda yosh harbiy xizmatchilarning bugungi kun talablari asosida bilim va koʻnikmalarini oshirish, Vatanga sadoqat, yurt tinchligi va xalq osoyishtaligini taʼminlash yoʻlidagi masʼuliyat tuygʻusini yanada mustahkamlash masalalariga alohida eʼtibor qaratildi.

Tadbir davomida Vatan himoyachisi boʻlish nafaqat yuksak sharafl, balki katta masʼuliyat ekanligi taʼkidlandi. Yoshlarni harbiy xizmat davomida intizomli, bilimli, jismonan chiniqqan va maʼnan yetuk boʻlib shakllanishga, oʻz oldiga aniq maqsadlar qoʻyib, kelajakdagi faoliyati uchun zarur bilim va tajribalarni egallashga chorlash boʻyicha fikrlar bildirildi.

Muloqot davomida muddatli harbiy xizmatchilar oʻzlarini qiziqtirgan savollar bilan murojaat qilib, xizmat, kelgusidagi faoliyat va yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlarga oid masalalar yuzasidan mutasaddi rahbarlardan batafsil javoblar oldilar. Yoshlarning taklif va mulohazalari tinglanib, ularni qoʻllab-quvvatlash hamda mavjud muammolarni oʻrganish yuzasidan fikr almashildi.

Avazbek IBRAGIMOV,

Jizzax viloyati FVB boshligʻi oʻrinbosari, podpolkovnik

Buxoroda rahbar va yoshlar uchrashuvi

Bugungi kunda yoshlarga oid davlat siyosati faqat taʼlim va tarbiya bilan cheklanib qolmasdan, qonun ustuvorligini taʼminlash, korrupsiya kabi illatlarga qarshi murosasiz kurashish, yoshlar ongini ekstremizm, terrorizm va din niqobi ostidagi yot gʻoyalardan asrash, shuningdek, Vatan himoyasini eng ulugʻ va eng sharafl burch sifatida anglatish kabi muhim vazifalarni ham oʻz ichiga oladi. Bu vazifalarning izchil amalga oshirilishi esa kelajakda jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.



Ana shu maqsadlarda davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlari ijrosini taʼminlash doirasida Buxoro viloyati, Kogon shahar Favqulodda vaziyatlar boʻlimi binosida “Rahbar va yoshlar uchrashuvi” tashkil etildi. Ushbu tadbirda Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshligʻi hamda Kogon shahar hokimi ishtirok etib, yoshlar bilan ochiq va samimiy muloqot olib bordi. Uchrashuv davomida yoshlarga favqulodda vaziyatlar sohasining ahamiyati, qutqaruvchi va yongʻin oʻchiruvchi kasbining masʼuliyati, shuningdek, ushbu yoʻnalishda xizmat qilishning sharafl i jihatlar haqida atroflicha maʼlumotlar berildi. Shuningdek, rahbarlar tomonidan yoshlarning kasb tanlashda ongli qaror qabul qilishi, oʻz oldiga aniq maqsad qoʻyishi, bilim va malakasini muntazam oshirib borishi zarurligi taʼkidlandi. Yoshlarning sohaga oid qiziqtirgan savollariga batafsil javoblar berildi, ularni qiziqtirgan

masalalar muhokama qilindi.

Uchrashuv davomida vatanparvarlik ruhidagi tarbiyaning ahamiyatiga alohida eʼtibor qaratildi. Yoshlarga Vatanga xizmat qilish nafaqat harbiylar, balki har bir fuqaroning muqaddas burchi ekan, oʻz kasbini sidqidildan bajarish ham Vatanga boʻlgan sadoqatning yorqin namunasi ekan tushuntirildi. Mazkur uchrashuv yoshlarda vatanparvarlik tuygʻusini yanada mustahkamlash, ularni sogʻlom gʻoyalar asosida tarbiyalash, jamiyat hayotida faol ishtirok etishga undash yoʻlidagi muhim qadam boʻldi. Bunday tadbirlar yoshlarning ertangi kunga boʻlgan ishonchini oshirib, Yangi Oʻzbekiston taraqqiyoti uchun masʼul va fidoyi avlodni shakllantirishga xizmat qiladi.

Nargiza NURULLAYEVA,

Buxoro viloyati FVB Axborot xizmati xodimi

Bugungi kunda favqulodda vaziyatlarning oldini olishda aholining xavfsizlik madaniyatini yuksaltirish, ayniqsa, yoshlar orasida ogohlilikni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada targʻibot tadbirlariga faol va tashabbuskor yoshlarning jalb etilishi ishlar samaradorligini yanada oshirmoqda.

Xavfsizlik targʻibotida volontyorlar koʻmagi



Navoiy viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi shaxsiy tarkibi hamda Boshqarma Volontyorlik klubi aʼzolari tomonidan “Dolzab 60 kun” tadbirlari doirasida viloyat hududida keng koʻlamli profilaktik va targʻibot tadbirlari olib borilmoqda.

Targʻibot ishlari aholi gavjum maskanlar, savdo va xizmat koʻrsatish nuqtalari hamda fuqarolarning yashash xonadonlarida tashkil etilib, unda FVB xodimlari bilan bir qatorda volontyor yoshlar ham faol ishtirok etmoqda.

Tadbirlar davomida fuqarolar bilan yuzma-yuz muloqotlar oʻtkazilib, ularga yongʻinlarning kelib chiqish sabablari va ularning oldini olish, kundalik hayotda xavfsizlik qoidalariga rioya etish, shuningdek, turli favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda toʻgʻri harakat qilish boʻyicha zarur tavsiyalar berilayotir. Shuningdek, holiga xavfsizlik qoidalari aks ettirilgan eslatma va targʻibot materiallari ham tarqatilmogda.

Ayniqsa, volontyor yoshlarning oʻz tengdoshlari bilan bevosita muloqotga kirishib, xavfsizlik qoidalarini sodda va tushunarli tarzda yetkazayotgani targʻibot tadbirlarining taʼsirchanligini oshirmoqda. Zero, yoshlarning yoshlar bilan muloqoti nafaqat ogohlilikni targʻib qilish, balki ularni jamiyat hayotida faol boʻlishga undashda ham muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, targʻibot tadbirlarida Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida yoʻlga qoʻyilgan volontyorlik harakati haqida ham batafsil maʼlumotlar berilib, yoshlarga volontyorlik safiga qoʻshilish tartibi, uning faoliyat yoʻnalishlari, volontyorlar uchun yaratilgan imkoniyat va imtiyozlar tushuntirilib, maxsus targʻibot flayerlari taqdim etilmoqda.

Bunday tadbirlar orqali bir tomondan aholining yongʻin va favqulodda vaziyatlardan ogohlilgi oshirilsa, ikkinchi tomondan yoshlarning ijtimoiy faolligi, masʼuliyati va jamiyat xavfsizligiga daxldorlik hissi mustahkamlanishi shubhasiz.

Xavfsizlik faqat mutaxassislarning vazifasi emas. Uni taʼminlashda har bir fuqaroning ogohlilgi, yoshlarning tashabbusi va jamoatchilikning faol ishtiroki muhim. Volontyorlar esa ana shu ezgu maqsad yoʻlida FVV xodimlarining yaqin koʻmakchisidir.

Joʻrabek SHAROPOV,

Navoiy viloyati FVB Maxsus qutqaruv kuchlari boʻlimi boshligʻi, mayor

FVV bilimdonlari ANIQLANDI

Zakovat – bu aql va mantiqni sinovdan oʻtkazadigan, kuchli raqobatni talab qiluvchi intellektual oʻyin boʻlib, asosiy maqsadi ishtirokchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Mazkur intellektual oʻyin zamonaviy hayotda juda muhim ahamiyatga ega. U nafaqat bilimlarni kengaytiradi, balki fikrlash va mantiqiy qobiliyatlarni rivojlantiradi ham.

Shu maʼnoda, Favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimlari oʻrtasida Mustaqilligimizning 35 yilligi munosabati bilan “Yagona Vatan, yagona xalq boʻlib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” shiori ostida oʻtkazilgan “Zakovat” intellektual oʻyini alohida ahamiyatga ega. Musobaqada vazirlik Markaziy apparati, hududiy (bosh) boshqarmalari va tarkibiy tuzilmalari harbiy xizmatchilari hamda xizmatchilari va faxriylaridan iborat jami 25 ta jamoa ishtirok etdi.

Keskin kurashlarga boy oʻtgan musobaqa yakuniy natijalariga koʻra 1-oʻrinni – “Markaziy apparat” jamoasi egallagan boʻlsa, 2-oʻrin – “Navoiy viloyati” jamoasiga va 3-oʻrin – “LUOK” MCHJ obyektlarida favqulodda vaziyatlar markaziga nasib etdi.

Yakunda gʻolib va sovrindorlarga Favqulodda vaziyatlar vazirining diplom va esdalik sovgʻalari topshirildi.

Maʼlumot oʻrinda aytish joiz, mazkur intellektual bellashuv FVV vazirining “Oʻzbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan vazirlik tizimida “Yagona Vatan, yagona xalq boʻlib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” shiori ostida “III Qutqaruvchi yoshlar forumi”ni oʻtkazish toʻgʻrisida”gi farmoyishiga binoan oʻtkazilayotgan tadbirlar safidan oʻrin olgan. Forum doirasida tadbirlar, xususan, bilimdonlar bellashuvi yuqori saviyada oʻtishi uchun “Zakovat” intellektual klubi, Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markazi, Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda boshqa vazirlik va idoralardan malakali mutaxassislar jalb etilgan.

FVV Axborot xizmati

FVV REKORDCHISI:

“INSON HAYOTINI SONIYALAR HAL QILADI”



Xorazm viloyatining Yangibozor tumanida tugʻilib oʻsgan, bugun Urganch shahridagi 2-qutqaruv qismida xizmat qilayotgan kichik serjant Ma'murjon Hakimboy o'g'li Matyoqubov ana shunday fidoyi insonlardan biridir. Uning hayot yo'liga nazar tashlasangiz, bir qarashda turli yo'nalishlar – sport, ta'lim, harbiy xizmat va qutqaruvchilik – bir-biridan uzoqdek tuyiladi. Aslida esa ularning barchasini bitta kuch birlashtirib turadi: iroda. Ma'murjonning bugungi yutuqlari ham aynan shu fazilatning yillar davomida chiniqib, tajriba va mahoratga aylangan natijasidir.

1996-yil 23-mayda dunyoga kelgan Ma'murjon bolalik chog'laridanoq shijoati bilan tengdoshlaridan ajralib turardi. El-yurt xizmatida bo'lgan harbiylar va qutqaruvchilarni ko'rganida, ularning mardligi, jasorati va odamlar xavfsizligi yo'lidagi fidoyiligiga havas qilardi. Ammo havasning o'zi yetarli emas. Orzuni maqsadga, maqsadni natijaga aylantirish uchun esa insondan yillar davomida sabr, intizom va tinimsiz mehnat talab etiladi. Ma'murjon bu yo'lni sportdan boshladi.

2012-yilda maktabni tamomlagach, Urganch olimpiya zaxiralari kollejiga o'qishga kirdi. Murabbiylari Jasurbek Abdullayev va Baxtiyor Shukurov rahbarligida yengil atletika bilan shug'ullana boshladi. Mashg'ulotlar uning nafaqat jismoniy imkoniyatlarini, balki xarakterini ham tarbiyaladi. Har bir yugurish mashg'uloti, har bir mashq, har bir musobaqa uning irodasini yanada chiniqtirdi. U sportda g'alaba tasodifan kelmasligini, marraga birinchi bo'lib yetib borish uchun avvalo o'zidagi sustkashlik, qo'rquv va ikkilanishni yengish kerakligini anglab bordi.

2015-yilda Andijonda o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida 400 metrga yugurish yo'nalishida birinchi o'rinni egallab, mamlakat chempioni bo'ldi. Bu g'alaba uning hayotida yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Erishgan natijasi tufayli Urganch davlat universitetining Jismoniy madaniyat fakultetiga imtihonsiz, davlat granti asosida o'qishga qabul qilindi. 2015–2019-yillarda oliy ma'lumot olishi uning kelgusidagi kasbiy faoliyati uchun mustahkam poydevor yaratdi. Biroq Ma'murjonning oldida hali eng katta sinovlar turardi.

2022-yil uning hayotida tub burilish yasadi. U Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimiga ishga kirib, Xorazm viloyati

BIR QAROR, BIR QADAM, O'Z VAQTIDA CHO'ZILGAN BIR QO'L YOKI XAVF OLDIDA BIR ZUM HAM IKKILANMASLIK – KIMNINGDIR HAYOTINI SAQLAB QOLISHI MUMKIN. QUTQARUVCHILIK KASBINING BUYUKLIGI HAM SHUNDA: BU SOHADA VAQT ODDIY O'LCHOV EMAS, INSON TAQDIRINING MEZONIDIR. SHUNDAY KASB EGALARI BORKI, ULAR O'Z HAYOTINI XAVF OSTIGA QO'YIB, BEGONA INSONNING HAYOTINI ASRASHNI O'ZINING SHARAFLI BURCHI DEB BILADI.

Favqulodda vaziyatlar boshqarmasida qutqaruvchi-g'avvos sifatida xizmat boshladi. Gurlan va Urganch tumanlari bo'limlarida 2022–2023-yillar davomida tajriba orttirdi. Bu davrda sport maydonida shakllangan jismoniy tayyorgarlik, tezkor fikrlash va chidamlilik unga xizmat jarayonida katta yordam berdi.

2024-yilda shartnoma asosida oddiy askarlar safiga qabul qilindi. Bugungi kunda esa Urganch shahridagi 2-qutqaruv qismida yo'riqchi-qutqaruvchi lavozimida, kichik serjant unvonida xizmat qilmoqda.

Qutqaruvchi uchun xavf tushunchasi boshqalarnikidan butunlay o'zgacha. Xavf to'satdan sodir bo'ladi. Uning sharoiti har gal har xil bo'ladi. U xavfga duch kelganida ortga chekinish haqida emas, qanday qilib insonni xavfsiz joyga olib chiqish haqida o'ylaydi. Yong'in, suv, balandlik yoki boshqa favqulodda vaziyatlarda vaziyatni to'g'ri baholash va soniyalar ichida qaror qabul qilish talab etiladi.

Ma'murjon buni juda yaxshi tushunadi. “Insonlarni xavfli vaziyatlardan qutqarib olishda soniyalar hisobga olinadi. Bunday vaqtda sovuqqon bo'lish, to'g'ri va tezkor qaror qabul qilish o'ta muhim. Bu vaziyatda o'tkir ko'z ham, kerakli so'z ham, kuch-qudrat ham, chapdastlik va abjirlik ham bir odamning o'zidan talab etiladi. Sport bilan shug'ullangan xodim nafaqat jismonan baquvvat bo'ladi, balki ruhiy jihatdan ham har qanday vaziyatga tayyor turadi. Bu ko'nikma xizmatimizdagi eng asosiy tayanchimizdir”, deydi u.

Bu so'zlarda uning hayotiy tajribasi mujassam. Chunki u sportni shunchaki musobaqalarda g'olib chiqish vositasi sifatida emas, hayotga tayyorgarlik maktabi sifatida qabul qilgan.

Favqulodda vaziyatlar tizimidagi xizmat bilan bir qatorda Ma'murjon ustoz Timur Jabborov rahbarligida yong'in-qutqaruv amaliy sporti bilan ham professional shug'ullana boshladi. Bu yo'nalish undan kuch, tezlik, aniqlik, jasorat va favqulodda vaziyatda o'zini boshqara olish qobiliyatini talab qiladi. Qisqa vaqt ichida u mamlakatning

kuchli sportchi-qutqaruvchilaridan biriga aylandi. Uning sportdagi natijalari esa bu mehnatning amaliy ifodasidir.

2025-yilda Namanganda o'tkazilgan musobaqada 100 metrga to'siqlar osha yugurishda 15,24 soniya natija qayd etib, O'zbekiston rekordini o'rnatdi. Ikki kurash bahsida esa 29,19 soniyalik natija bilan yana bir mutlaq mamlakat rekordini yangiladi. 2026-yilda Qarshida o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida birinchi o'rinni egalladi.

Biz bu yutuqlarni shunchaki raqamlarda qayd etamiz, lekin bu darajaga erishguncha qahramonimiz qanday mehnat qilgani, vaqti kelsa jarohatlar ham olganini o'zi yaxshiroq biladi.

Ma'murjonning xalqaro maydondagi natijalari ham e'tiborga molik. 2024-yilda Xitoyning Harbin shahrida o'tkazilgan jahon chempionatida to'rtinchi o'rinni egalladi. 2025-yilda Rossiyaning Ufa shahridagi xalqaro turnirda jangovar yoyilish yo'nalishida birinchi o'ringa sazovor bo'ldi.

Shu yil Saudiya Arabistonining Ar-Riyod shahrida 30 dan ortiq davlat vakillari qatnashgan jahon chempionatida jangovar yoyilish yo'nalishida ikkinchi, estafetada uchinchi o'rinni egalladi. Umumjamoa hisobida esa O'zbekiston terma jamoasi faxrli ikkinchi o'rinni qo'lga kiritishida o'z hissasini qo'shdi. 2026-yilda Belarus poytaxti Minskda o'tkazilgan xalqaro turnirda ham jangovar yoyilish va umumjamoa hisobida uchinchi o'rinni egalladi.

Bu raqamlar va o'rinlar ortida ham ko'zga ko'rinmaydigan ulkan mehnat bor. Erta tongdagi mashg'ulotlar, charchoqni yengish, har bir harakatni qayta-qayta takrorlash, mag'lubiyatdan keyin yana mashq qilish, o'z ustida tinimsiz ishlash – ularning barchasi sportchi-qutqaruvchining kundalik hayot tarziga aylangan. Mashqlar xuddi hayotiy zarurat kabi.

Eng muhimi, Ma'murjon uchun sportdagi g'alaba xizmatdagi mas'uliyatdan ajralgan tushuncha emas. Aksincha, sportda chiniqqan tana va ruh qutqaruvchilikdagi og'ir vazifalarni bajarishga tayyorlaydi. Musobaqadagi har bir soniya, xizmatdagi har bir lahza kabi,



muhim. Farqi shundaki, sport maydonida soniyalar medal va rekordni belgilasa, qutqaruvchilikda ular inson hayotini belgilashi mumkin.

Bugun Ma'murjon O'zbekiston milliy terma jamoasi tarkibida Ozarbayjonning Boku shahrida o'tkaziladigan navbatdagi jahon chempionatiga qizg'in tayyorgarlik ko'rmoqda. Uning oldida yana bir mas'uliyatli sinov, yana bir katta marrani zabt etish imkoniyati turibdi.

Ammo inson uchun erishilgan natija hech qachon oxirgi manzil bo'lib qolmaydi. Ma'murjon ham bugungi yutuqlari bilan kifoyalanmoqchi emas. Uning yaqin kelajakdagi maqsadi – serjantlar tarkibidan ofitserlar tarkibiga o'tish, kelgusida katta ofitser sifatida Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida yanada mas'uliyatli vazifalarni bajarish. Sportdagi eng katta orzusi esa yong'in-qutqaruv amaliy sporti bo'yicha jahon rekordini yangilash.

Bunday maqsadlar kishidan faqat iste'dod emas, kuchli iroda talab qiladi. Ma'murjonning hayot yo'li esa bir haqiqatni ko'rsatib turibdi: katta natijalar bir kunda yaratilmaydi. Har bir rekord ortida minglab mashqlar, har bir g'alaba ortida yengilgan qiyinchiliklar, voz kechilgan halovatlar, yengib o'tilgan beparvoliklar, har bir muvaffaqiyat ortida esa o'ziga bo'lgan talabchanlik turadi.

Burchga sadoqat, yuksak intizom va doimiy ravishda o'z ustida ishlash – kichik serjant Ma'murjon Matyoqubov faoliyatining asosiy mezonlari. Uning sportdagi g'alabalari, xizmatdagi tajribasi va kelajakdagi katta maqsadlari bir-birini to'ldirib turibdi. Xuddi bundan boshqacha bo'lishi mumkin emasdek.

Qutqaruvchining eng katta g'alabasi medal yoki rekord emas, – dedi u. – Marra – bir insonning hayotini saqlab qolish. O'sha lahzada hech kim qutqaruvchining qancha mashq qilgani, nechta musobaqada g'olib bo'lgani yoki nechta rekord o'rnatganini so'ramaydi. Bu vaziyatda Inson degan nomga loyqlik sinovdan o'tadi.

Ana shunday pallalarda Ma'murjon kabi qutqaruvchilarning kasbi naqadar ulug' va mas'uliyatli ekani yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki ular uchun vaqt oddiy vaqt emas. Ular uchun soniyalar — inson umidi. Birgina soniya esa ba'zan butun bir oila hayotini saqlab qolishi, kutilmagan mo'jizalar sodir etishi mumkin.

Gulnora SHERMATOVA,
“Vaziyat” muxbiri

Mukofotlar muborak!

Xabaringiz bor, yaqinda Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida”gi farmoni e‘lon qilindi.

Ana shu xabarning yana bir quvonchli tomoni shundaki, mukofotlanganlar orasida FVV tizimida xizmat qilib kelayotgan ofitser va xizmatchi xodimlar ham bor.

Xususan, II darajali “Shon-sharaf” ordeni bilan O‘zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vaziri Ikromov Azizbek Isroilovich, “Mehnat shuhrati” ordeni bilan O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasi kafedra professori Qurbonov Xolmurod Abdusalamovich, II darajali “Salomatlik” ordeni bilan Surxondaryo viloyati favqulodda vaziyatlar boshqarmasi markaz boshlig‘i Ochilov Xurshid Ziyadullayevich, “Jasorat” medali bilan Favqulodda vaziyatlar vazirligi maxsus qutqaruv batalyoni guruh komandiri (marhum) Pardayev Boburmirzo Komiljon o‘g‘li, “Sodiq xizmatlari uchun” medali bilan Toshkent viloyati favqulodda vaziyatlar

bosh boshqarmasi bo‘lim katta inspektori Azimova Barno Botirovna hamda O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi boshqarma boshlig‘i Ibragimov G‘ayratjon Nig‘matovich, “Shuhrat” medali bilan Farg‘ona viloyati favqulodda vaziyatlar boshqarmasi maxsus qutqaruv otryadi suvda qutqaruv guruhi qutqaruvchisi Mamatqulov Farruxjon Saminovich, Jizzax viloyati favqulodda vaziyatlar boshqarmasi maxsus qutqaruv otryadi qutqaruvchi-yo‘riqchisi Mamatqulov Shavkat Qiryigitovich, Navoiy viloyati Karmana tumani favqulodda vaziyatlar bo‘limi boshlig‘i Samandarov Anvar Odilovich, Qashqadaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Sho‘rtan

gaz-kimyo majmuasi obyektlarida favqulodda vaziyatlar bo‘limi guruh komandiri Sharapov Husniddin Muysinovich hamda Toshkent shahar favqulodda vaziyatlar bosh boshqarmasi favqulodda vaziyatlar bosh boshqarish markazi katta navbatchi dispetcheri Bariyeva Albina Ildusovna taqdirlandi.

Fursatdan foydalanib, davlat mukofoti bilan taqdirlangan har bir FVV ofitser va xizmatchi xodimlarini samimiy muborakbod etamiz. Mazkur yuksak e‘tirof xizmat faoliyatingizda yanada ko‘proq kuch-g‘ayrat bag‘ishlashiga tilakdoshmiz!

Tahririyat

Harbiy prokuratura faoliyatidan

TADBIRLAR DAVOM ETMOQDA

Toshkent harbiy prokuraturasi tomonidan harbiy qism va muassasalarda davlatimiz mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” shiori ostida qator uchrashuv, muloqot va boshqa tadbirlar o‘tkazib kelinmoqda.

Shu kabi tadbirlarning navbatdagisi harbiy qismlarning birida shaxsiy tarkib ishtirokida o‘tkazildi.

Muloqotda mamlakatimizda amalga oshirilgan va jadal davom etayotgan, shu jumladan Qurolli Kuchlarimizdagi keng qamrovli islohotlar, shuningdek, harbiy xizmatchilar va ularning turmush o‘rtloqlari hamda farzandlari uchun joriy etilgan imtiyoz va imkoniyatlar haqida so‘z bordi.

Tadbirlar davom ettirilib, Milliy gvardiya Toshkent shahar bo‘yicha boshqarmasida ommaviy sayyor qabul tashkil etildi.

Unda qator mutaxassislar jalb etilgan holda harbiy xizmatchilar, xodimlar va ularning oila a‘zolari tinglanib, murojaatlarni joyida hal etish choralari ko‘rildi.

Jarayonda mehnat yarmarkasi ham tashkil etilib, harbiy xizmatchilarning ish bilan band bo‘lmagan oila a‘zolariga ularning mutaxassisligiga mos bo‘sh ish o‘rinlari taklif etildi.

Ushbu tadbirda kitoblar ko‘rgazmasi ham o‘tkazilib, tashrif buyurganlarga o‘zbek va jahon adabiyoti durdonalari hisoblangan qator asarlar tavsiya etildi.

Olim HAYDAROV,

Toshkent harbiy prokurorining katta yordamchisi, adliya mayori

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasida “Yangi O‘zbekistonda favqulodda vaziyatlar sohasini rivojlantirish: xavfsizlik, inson huquqlarini ta‘minlash va raqamli texnologiyalarni joriy etishning dolzarb masalalari” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani bo‘lib o‘tdi.



FVV akademiyasida ilmiy-amaliy anjuman



Bundan ko‘zlangan maqsad davlat rahbarining joriy yil 1-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta‘minlash, erishilgan yutuqlarni ilmiy jihatdan tahlil qilish, favqulodda vaziyatlar sohasini yanada rivojlantirish, xavfsizlikni mustahkamlash, zamonaviy innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda ilm-fan, ta‘lim va amaliyot integratsiyasini kuchaytirishdan iboratdir.

Mazkur anjumanda Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi “Ma‘rifat” targ‘ibotchilar jamiyati faol a‘zosi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, xalqaro toifadagi spiker, falsafa fanlari doktori, professor Jamila Shermuhammedova, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy Majlisdagi vakolatli vakili To‘lqin Abdusattorov, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi raisining o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor Asqar G‘afurov, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Davlat va huquq instituti direktori o‘rinbosari yuridik fanlar doktori professor Abdumannop Tulaganov, O‘zbekiston Respublikasi Odil

sudlov akademiyasi kafedra mudiri, yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent Erkinjon Sobirov, shuningdek, Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi professor-o‘qituvchilari, tinglovchilari, harbiy xizmatchilari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Anjumanda so‘zga chiqqanlar tomonidan xavfsizlikni ta‘minlash va inson huquqlarini himoya qilish, favqulodda vaziyatlar sohasini rivojlantirishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish hamda sohada ilm-fan va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish masalalari yuzasidan fikr va mulohazalar bildirildi. Mavzu doirasida taklif va tavsiyalar ilgari surilib, ishtirokchilar bilan fikr almashildi. Xususan, Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi boshlig‘i, yuridik fanlar doktori, professor, polkovnik Muzaffarjon Mamasiddiqov anjuman mavzusining dolzarbligi, favqulodda vaziyatlar sohasini ilmiy asosda rivojlantirish, xavfsizlikni ta‘minlash, inson huquqlarini himoya qilish hamda zamonaviy raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish masalalarining ahamiyati haqida so‘z yuritdi.

Tadbir doirasida Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasining Ilmiy-innovatsion tadqiqotlarni muvofiqlashtirish va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash bo‘limi ilmiy xodimi, katta leytenant Sherali Mustaqimov tomonidan zamonaviy ilmiy-innovatsion texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan uchuvchisiz uchish apparati, shuningdek, uning ilmiy ishlanmalari va ixtirolari taqdimoti ham o‘tkazildi.

Taqdimot davomida zamonaviy texnologiyalarning favqulodda vaziyatlarning oldini olish, monitoring qilish va ularning oqibatlarini bartaraf etish jarayonlaridagi imkoniyatlari haqida ma‘lumotlar berildi. Anjuman yakunida ishtirokchilarni qiziqtirgan savollarga mutaxassislar tomonidan batafsil javoblar berilib, mavzu yuzasidan fikr va mulohazalar almashildi.

Farhodjon XOJAYEV,

FVV Akademiyasi axborot va jamoatchilik bilan aloqalar bo‘limi boshlig‘i, mayor

BAYRAM TADBIRLARI XAVFSIZ O'TKAZILADI

O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining o'ttiz besh yilligi "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!" degan bosh g'oya asosida keng nishonlanishi munosabati bilan bayram tadbirlarini xavfsiz va yuqori saviyada o'tkazish choralari ko'rilmoqda.



Jamoat tartibini saqlash hamda fuqarolar osoyishtaligini ta'minlash bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa mas'ul tuzilmalar tomonidan muhim tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu maqsadda Namangan viloyati IIB boshlig'i, Milliy gvardiya hamda Favqulodda vaziyatlar boshqarmalari boshliqlari tomonidan Kosonsoy, Yangiqo'rg'on va Chortoq tumanlarida Mustaqillik bayrami munosabati bilan ommaviy tadbirlar o'tkazilishi rejalashtirilgan hududlar o'rganildi.

O'rganish davomida jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, favqulodda vaziyatlarning oldini olish, transport va piyodalar harakatini tartibga solish bo'yicha tushuntirish ishlari olib borildi.

Shuningdek, jalb etiladigan kuch va vositalarni belgilangan tartibda joylashtirish bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqilib, mas'ullarga tegishli vazifalar belgilab berildi.

Biloljon QAMBARALIYEV,
Namangan viloyati FVB Axborot xizmati yetakchi mutaxassisi



Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan e'lon qilingan "Dolzarb 60 kun" profilaktik tadbirlari joylarda izchil davom ettirilmoqda.

O'TA MUHIM OBYEKTlarda NAZORAT

Mazkur tadbirlar doirasida Samarqand viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi xodimlari tomonidan viloyat hududida joylashgan o'ta muhim va toifalangan obyektlarda yong'in xavfsizligi talablariga rioya etilishi yuzasidan keng qamrovli nazorat-profilaktik tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Profilaktik tadbirlar davomida strategik ahamiyatga ega sanoat korxonalari, energetika obyektlari, davlat xaxiralari omborlari, neft mahsulotlari saqlanadigan bazalar hamda boshqa muhim inshootlarning yong'in xavfsizligi holati batafsil o'rganilmoqda.

Avtomatik yong'in signalizatsiyasi, yong'inni o'chirish tizimlari, suv ta'minoti, gidrantlar, birlamchi o'chirish vositalari, elektr xo'jaligi va evakuatsiya yo'llari tekshirilib, kamchiliklarni barta-

raf etish bo'yicha tavsiyalar berilmoqda.

Shuningdek, neft mahsulotlari va boshqa yonuvchan moddalar saqlanadigan hududlarda yuqori harorat ta'sirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf omillari tahlil qilinib, qo'shimcha xavfsizlik choralari belgilandi. Xodimlar bilan yong'in xavfsizligi qoidalarini, favqulodda vaziyatlarda harakatlanish tartibi, evakuatsiya hamda birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi.

Samarqand viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi tomonidan mazkur yo'nalishdagi profilaktik tadbirlar tizimli ravishda davom ettirilmoqda.

Murod RASULOV,
Samarqand viloyati FVB O'M va TOFVB boshlig'i, mayor

KENG QAMROVLI TADORIK

"Dolzarb 60 kun" tadbirlari – O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi va tegishli idoralar tomonidan yong'inlarning oldini olish va yong'in xavfsizligini ta'minlash maqsadida o'tkazilayotgan keng qamrovli profilaktik tadorikdir.

Davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan sohaga oid qaror va farmonlari asosida Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida e'tiborga molik islohotlar amalga oshirildi.

Jumladan, davlat nazorati inspektorlari mahallalarga biriktirilib, "mahallabay" va "xonadonbay" ishlash tizimi joriy etildi. Inspektorlar uchun mahallalarda xizmat xonalarini tashkil etish ishlari bosqichma-bosqich davom etmoqda.

Joriy yilning o'tgan davrida vazirlik tomonidan 55 ming 441 ta obyekt, qariyb 2 million yakka tartibdagi uy, 44 mingdan ortiq ko'p xonadonli uy hamda 1,5 millionga yaqin xonadonda profilaktik o'rganishlar o'tkazildi.

Mazkur tadbir doirasida aholi o'rtasida elektr va gaz jihozlaridan to'g'ri foydalanish bo'yicha tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Odamlar gavjum bo'ladigan joylarda, savdo majmualarida yong'in



xavfsizligi qoidalariga rioya etilishi tekshirilmoqda va nazorat kuchaytirilmoqda.

Yirik ishlab chiqarish korxonalari, kimyoviy moddalar saqlanadigan omborlar va strategik obyektlar xavfsizligi ko'zdan kechirilmoqda.

Jazirama issiqda qurigan o't-o'lanlar va g'alladan bo'shagan maydonlarda tilsiz yov chiqishining oldini olish choralari ko'rilmoqda.

Nuriddin ABDULLAYEV,
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati
FVB inspektori, kapitan

Tohir ISMOILOV,
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati
FVB kichik inspektori

KUYDIRGI KASALLIGI TARQALISHINING OLDINI OLISH



Xovos tumanida “Kuydirgi kasalligining kelib chiqishi va tarqalishining oldini olishda Favqulodda vaziyatlar davlat quyi tizim xizmatlarining hamkorlikdagi harakatlari” mavzusida ko'rgazmali maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

Mashqdan ko'zlangan asosiy maqsad kuydirgi kasalligining tabiiy o'choqlarini aniqlash hamda tarqalishining oldini olish, Favqulodda vaziyatlar davlat quyi tizim xizmatlarining hamkorlikdagi harakatlarini kuchaytirish, qolaversa ularning tayyorgarlik darajasini baholashdan iborat bo'ldi.

Mashq nazariy va amaliy qismlarga bo'lindi. Nazariy qismda Sirdaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi hamda Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi mas'ul xodimlarining ma'ruzalari tinglandi. Ularda kuydirgi kasalligi, uning tarqalish xususiyatlari, oldini olish choralari va epidemiologik xavflarni bartaraf etish masalalari haqida ma'lumotlar berildi. Savol-javob va munozaralar bilan davom etgan nazariy qismdan so'ng amaliy harakatlarga kirishildi.

Amaliy qismda Xovos tumanidagi xonadonlarning birida kasallangan va xonadon egasi tomonidan so'yilgan chorva molidan kuydirgi kasalligini yuqtirib olganlikda gumon qilingan shartli bemorga tibbiyot

xodimlari tomonidan birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, uni shifoxonaga evakuatsiya qilish, maslahat berish hamda zararsizlantirish guruhlarining harakatlari bosqichma-bosqich namoyish etildi.

Shuningdek, bemorga dastlabki tashxis qo'yish, uni alohidalash va davolash, bemorni olib kelgan maxsus avtotransport vositalarini zararsizlantirish bo'yicha tadbirlar amaliy tarzda ko'rsatib berildi.

Mashg'ulot davomida tuman hududidagi aholi xonadonlarida shartli ravishda kuydirgi kasalligiga gumon qilingan hayvonni aniqlash va izolyatsiya qilish, majburiy so'yilgan hamda kasallanib o'lgan chorva mollari ko'milgan joydan laboratoriya tekshiruvi uchun tuproq namunalarini olish, hududni dezinfeksiya qilish va boshqa zarur profilaktik tadbirlarni amalga oshirish tartibi ham namoyish etildi.

Maxsus-taktik o'quv mashqi yakunida ishtirokchi tashkilotlar va xizmatlarning harakatlari tahlil qilinib, ularning tayyorgarlik darajasi baholandi. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va kelgusidagi hamkorlikni yanada takomillashtirish bo'yicha tegishli tavsiyalar berildi.

Davronbek SULAYMONOV,
Sirdaryo viloyati FVB Axborot xizmati
boshlig'i, kapitan

Umid SHOMURODOV,
Sirdaryo viloyati FVB bo'lim boshlig'i, mayor



Yong'inlarning oldini olish, aholi xavfsizligini ta'minlash hamda favqulodda vaziyatlarda to'g'ri va tezkor harakat qilish ko'nikmalarini mustahkamlash maqsadida Farg'ona viloyatida “Dolzarb 60 kun” tadbirlari doirasida keng qamrovli amaliy tadbirlar izchil davom ettirilmoqda.

Yoz mavsumida yong'in xavfsizligi

Yoz mavsumida yong'in xavfsizligini ta'minlash, ko'p qavatli turar joylarda istiqomat qiluvchi fuqarolarning favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish ko'nikmasini oshirish maqsadida Farg'ona shahridagi ko'p qavatli turar joylarda hamkor tashkilotlar ishtirokida maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

Mashg'ulot davomida shartli ravishda yuzaga kelgan favqulodda vaziyatda fuqarolarni xavfsiz hududga evakuatsiya qilish, jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, qutqaruv ishlarini tashkil etish hamda yong'inni tezkorlik bilan bartaraf etish bo'yicha amaliy harakatlar bajarildi. Jarayon davomida hamkor xizmatlarning o'zaro muvofiqlashtirilgan faoliyati, tezkorligi va favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik darajasi sinovdan o'tkazildi.

Shuningdek, Farg'ona shahridagi “Shakarqishloq” MFY hududida “Zamonaviy himoya qurilmalarining favqulodda vaziyatlarning oldini olishdagi o'rni va ahamiyati” mavzusida ko'rgazmali seminar tashkil etildi.

Unda mahalla aholisi o'rtasida yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, favqulodda vaziyatlarning

oldini olish, zamonaviy himoya va ogohlantirish qurilmalaridan to'g'ri foydalanish yuzasidan tushuntirish ishlari olib borildi. Fuqarolarga tutun, gaz va boshqa xavfli omillarni barvaqt aniqlash imkonini beruvchi qurilmalarning afzalliklari haqida batafsil ma'lumot berildi.

Seminar davomida ko'p qavatli turar joydagi xonadonlardan biriga o'rnatilgan zamonaviy himoya qurilmalarining ishlash prinsipi amaliy tarzda namoyish etildi. Mutaxassislar tomonidan qurilmalardan to'g'ri foydalanish, ularni soz holatda saqlash va xavf yuzaga kelganda to'g'ri harakat qilish bo'yicha tavsiyalar berildi.

Bunday amaliy mashg'ulot va ko'rgazmali seminarlar aholining yong'in xavfsizligi bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish, favqulodda vaziyatlarda sarosimaga tushmasdan to'g'ri harakat qilish malakasini shakllantirish, shuningdek, inson hayoti va mol-mulkini muhofaza qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sardor ABBOZOV,
Farg'ona viloyati FVB Axborot
xizmati boshlig'i, katta leytenant

TAYYORGARLIK MASHG'ULOTLARI

Qashqadaryo viloyatida favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularning oqibatlarini tezkor bartaraf etish hamda tashkilotlar xodimlarining favqulodda holatlardagi harakatlarini takomillashtirishga qaratilgan amaliy mashg'ulotlar muntazam olib borilayotir.



Qashqadaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi tomonidan hamkor tashkilotlar bilan birgalikda o'tkazilayotgan mashg'ulotlarda turli xususiyatdagi favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko'rish, kuch va vositalarning hamjihatlikdagi harakatlarini muvofiqlashtirish hamda xavfsizlik choralarini amalda sinovdan o'tkazishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, “Qashqadaryo suv ta'minoti” AJda oqova suv tizimlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik bo'yicha amaliy mashg'ulot o'tkazildi. Unda tegishli xizmatlar va hamkor tashkilotlarning shartli favqulodda vaziyat yuzaga kelgandagi harakatlari, mavjud kuch va vositalardan samarali foydalanishi hamda o'zaro hamkorligi amaliy jihatdan sinovdan o'tkazildi.

“Qashqadaryo Milliy elektr tarmoqlari” AJ tasarrufidagi yuqori kuchlanishli podstantsiyada esa yong'in o'chirish amaliy-taktik mashg'uloti tashkil etildi. Unda shartli yong'inni qisqa muddatda bartaraf etish, xodimlarni xavfsiz hududga evakuatsiya qilish, yong'in-qutqaruv bo'linmalarining tezkor harakatlari hamda jalb etilgan kuch va vositalarning hamkorligi sinovdan o'tkazildi.

E'tiborlisi, bunday mashg'ulotlar kunduzgi vaqt bilan cheklanib qolmay, tunning qorong'i sharoitlarida ham o'tkazilmoqda. Bu qutqaruvchilarning har qanday vaqtda, jumladan, ko'rish

imkoniyati cheklangan sharoitlarda ham tezkor va aniq harakat qilish ko'nikmalarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qarshi shahridagi “Yerqo'rg'on” bozorida Qashqadaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi hamda Qarshi shahar bo'limi hamkorligida tashkil etilgan tungi maxsus-taktik o'quv mashg'uloti ham shu maqsadga xizmat qildi.

Savdo nuqtalari faoliyati yakunlangan, atrof qorong'ilikka cho'mgan paytda o'tkazilgan mashg'ulot davomida bozorda shartli favqulodda vaziyat yuzaga kelishi bilan bog'liq holat modelashtirildi. Mashg'ulot jarayonida xodimlarning vaziyatni to'g'ri baholashi, kuch va vositalarni oqilona taqsimlashi, belgilangan yo'nalishlar bo'yicha harakatlanishi hamda o'zaro axborot almashinuvini ta'minlashi nazorat qilindi.

Mazkur mashg'ulotlar favqulodda vaziyatlarning oldini olish hodisa sodir bo'lgandan keyingi tezkor choralar bilangina cheklanmasligini yana bir bor ko'rsatmoqda. Asosiy maqsad – ehtimoliy xavflarni oldindan baholash, har bir obyektning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish va qutqaruv xizmatlarining har qanday vaziyatga doimo shayligini ta'minlashdir.

Mirzohid OSTONOV,
Qashqadaryo viloyati FVB boshlig'ining birinchi
o'rinbosari, podpolkovnik

HARBIY INTIZOMNI MUSTAHKAMLASH

Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Namangan viloyati FVB xodimlari ishtirokida harbiy qism va muassasalarda "O'qotar qurol, o'q-dorilar va portlovchi moddalarni qonunga xilof ravishda egallash – xavfsizlikka qarshi jinoyatdir" mavzusida profilaktik tadbirlar o'tkazildi.

Tadbirlar davomida mas'ul xodimlar tomonidan shaxsiy tarkibga O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 247-moddasining mazmun-mohiyati tushuntirildi.

Harbiy xizmatchilar va xizmatchilar o'rtasida harbiy intizomni mustahkamlash, huquqbuzarlik va qonun buzilishlarining oldini olish, diniy ekstremizm va terrorizm, korrupsiya hamda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, shaxsiy tarkibning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Mas'ul xodimlar tomonidan harbiy xizmatchi va xizmatchilarning oila a'zolari hamda farzandlari o'rtasida diniy ekstremistik oqimlar ta'siriga tushib qolishning oldini olish yuzasidan tegishli tushuntirish va yo'riqnomalar berildi.

Shuni aytib o'tish zarurki, huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy hamda jamiyat manfaatlar o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini aholi ongiga singdirish ishlarining yetarli olib borilmasligi ham qonun ustuvorligini ta'minlashga o'zining jiddiy salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Mazkur yo'nalishdagi profilaktik tadbirlar Naman shahri va viloyatning barcha tumanlarida izchil davom ettirilmoqda.

O'tkirbek KALONOV,

Namangan viloyati FVB SHXB xodimi, podpolkovnik

Vazirlikning tegishli buyrug'iga asosan har haftaning payshanba kuni "Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni" doirasida Navoiy viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi hamda uning barcha tarkibiy tuzilmalarida shaxsiy tarkib o'rtasida huquqbuzarliklar, jinoyatchilik va korrupsiyaviy holatlarning oldini olishga qaratilgan tizimli profilaktik tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.



HALOLLIK, XOLISLIK VA MAS'ULIYAT

Mazkur tadbirlarning asosiy maqsadi – xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirish, xizmat intizomi va qonuniylik talablariga qat'iy rioya etilishini ta'minlash, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, shuningdek, turli huquqbuzarliklarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan omillarni erta aniqlash hamda ularni bartaraf etishdan iborat.

Navbatdagi profilaktik tadbir Navoiy viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasida Navoiy Harbiy prokuraturasi bilan hamkorlikda tashkil etildi. Unda shaxsiy tarkib ishtirokida huquqbuzarliklar va qonunbuzarliklar, xususan, korrupsiyaviy xatti-harakatlarning oldini olish masalalariga bag'ishlangan profilaktik davra suhbat o'tkazildi.

Uchrashuv davomida korrupsiyaning jamiyat va davlat rivojiga salbiy ta'siri, mansab vakolatlaridan qonunga xilof ravishda foydalanishning huquqiy oqibatlarini, xizmat faoliyatida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, xodimlarning odob-axloq va xizmat intizomi talablariga rioya etishi yuzasi-

dan batafsil tushuntirishlar berildi.

Shuningdek, har bir xodim o'z xizmat vazifalarini halollik, xolislik va mas'uliyat bilan bajarishi, fuqarolar bilan munosabatlarda qonuniylik tamoyillariga qat'iy amal qilishi, korrupsiyaga oid har qanday holatga nisbatan murosasiz pozitsiyada bo'lishi lozimligi alohida ta'kidlandi.

Davra suhbat davomida huquqbuzarlik va jinoyat sodir etilishiga sabab bo'luvchi omillar, ularning oldini olish mexanizmlari, xizmat jarayonida uchrashi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar hamda bunday vaziyatlarda xodimlarning to'g'ri harakat qilish tartibi yuzasidan fikr almashildi. Hayotiy misollar asosida qonunbuzarliklarning salbiy oqibatlarini tushuntirilib, shaxsiy tarkibni turli noqonuniy xatti-harakatlardan ogoh bo'lishga chaqirildi.

Azizjon SHERALIYEV,

Navoiy viloyati FVB Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar bo'limi boshlig'i, mayor

Inson hayoti va salomatligini asrash, jamoat tartibini ta'minlash har bir fuqaroning burchi. Ayniqsa, aholi xavfsizligini ta'minlashdek mas'uliyatli vazifani bajarayotgan Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimi xodimlari uchun qonun va belgilangan tartib-qoidalariga qat'iy amal qilish alohida ahamiyat kasb etadi.

Payshanba – "Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni" doirasida Buxoro viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasida jamoat joylarida odob-axloq qoidalariga rioya qilish hamda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan profilaktik tadbir o'tkazildi. Unda boshqarma shaxsiy tarkibi, shuningdek, ZOOM platformasi orqali shahar va tuman favqulodda vaziyatlar bo'limlari xodimlari ishtirok etdi.

Tadbir davomida IIB YHXB mas'ullari tomonidan xodimlarga yo'l harakati qoidalariga rioya qilish, transport vositasini boshqarishda ehtiyotkor va hushyor bo'lish, belgilangan tezlik me'yorlariga amal qilish, piyodalar hamda boshqa harakat ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash yuzasidan tushuntirishlar berildi. Shuningdek, yo'l-transport hodisalarining oldini olish, haydovchilik madaniyatini oshirish va yo'llarda xavfsiz hara-

PIYODALAR HUQUQI



katlanishning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratildi.

Zero, FVV xodimi uchun yo'l harakati qoidalariga amal qilish oddiy majburiyat emas, balki xizmat intizomi va shaxsiy mas'uliyatning muhim ko'rsatkichidir. Qutqaruv va boshqa maxsus xizmat vazifalarini bajarishda tezkorlik talab etilsa-da, bu holat yo'l harakati xavfsizligiga beparvo munosabatda bo'lish uchun asos bo'la olmaydi.

Xizmat vazifasini bajarayotgan xodim, avvalo, o'zining va atrofida-gi insonlarning hayotini xavf ostiga qo'ymasligi lozim. Ayniqsa, xizmat avtomobilini boshqarayotganda xodim o'zining harakatiga yanada mas'uliyat bilan yondashishi zarur. Xizmat maqomi yoki maxsus libos qonun talablaridan ustun qo'yilishi mumkin emas. Mansab vakolatidan foydal-nib, yo'l harakati qoidalarini buzish, qoidabuzarlik uchun javobgarlikdan

gochishga urinish yoki boshqa harakat ishtirokchilariga bosim o'tkazish mutlaqo nomaqbul holatdir.

FVV xodimi o'zining yo'ldagi madaniyati, qonunga hurmati va intizomi bilan boshqalarga namuna bo'lishi kerak. Chunki davlat xizmatchisining har bir xatti-harakatidan nafaqat uning shaxsiy madaniyati, balki u xizmat qilayotgan tizimga bo'lgan munosabat ham ko'rinadi.

Tadbirda ta'kidlanganidek, yo'lda belgilangan tezlikka amal qilish, yo'l belgilari va svetofor talablariga rioya etish, transport vositasini ehtiyotkorlik bilan boshqarish, piyodalar huquqini hurmat qilish, xavfli man-yovrlardan saqlanish – ularning barchasi inson hayotini asrashga xizmat qiladi.

Zero, insonlarni turli xavf-xatarlardan asrashga mas'ul bo'lgan xodim, avvalo, o'zi yo'lda xavfsizlik va qonunga hurmat namunasini ko'rsatishi kerak.

Nargiza NURULLAYEVA,

Buxoro viloyati FVB Axborot xizmati xodimi

TOG' BAG'RIDAGI SINOV

1-qism



QIRQDAN OSHGAN UMRIM DAVOMIDA, AYNIQSA, XIZMAT FAOLIYATIMDA KO'PLAB FAVQULODDA VAZIYATLARGA DUCH KELGANMAN. YONG'INLAR, SEL VA SUV TOSHIQLARI, YO'L-TRANSPORT HODISALARI, MURAKKAB QUTQARUV AMALIYOTLARI... HAR BIRIDA INSON TAQDIRI BILAN YUZMA-YUZ KELGANMIZ. AMMO 2026-YIL AVVALIDA BOSHIMDAN KECHIRGAN VOQEA NAFAQAT XIZMAT FAOLIYATIMDAGI, BALKI BUTUN HAYOTIMDAGI ENG OG'IR, ENG UNUTILMAS SINOV LARDAN BIRIGA AYLANDI, DEYA OLAMAN.

2026-yil 31-yanvar kuni yaqin ustozlarimizdan birining oilaviy tadbiriga xizmat yuzasidan taklif etilgan edim. Davrada samimiyat hukm surar, kulgilar yangrar, barchaning chehrasida xotirjamlik aks etardi. Ammo negadir Boshqarma boshlig'i, polkovnik Farhod Mirzayev hamda uning birinchi o'rinbosari, podpolkovnik Mirzohid Ostonov davrada yo'q edi.

Aslida esa ularning bezovtaligi tadbir boshidan oq sezilib turgandi. Xizmatda yurgan inson ayrim holatlarni so'zsiz ham his qiladi. Ichimni allaqanday xavotir qopladi. "Biror joyda favqulodda vaziyat yuz berdimikan?" degan o'y xayolimni tark etmadi. Ko'nglim joyiga tushmadi. Tadbirni tark etdim va hech ikkilanmay boshqarmaga yo'l oldim.

Boshqarma hovlisiga kirganimda, odatdagi osoyishtalik o'rni shoshilinch tayyorgarlik egallagan edi. Maxsus yuk mashinasiga qorli tog' hududlarida harakatlanishga mo'ljallangan motorli chang'ilar ortilar, har bir daqiqa qimmatga aylanib ulgurgan edi. Jarayonni podpolkovnik Mirzohid Ostonovning o'zi boshqarayotgan edi.

– Nima bo'ldi? – dedim shoshilib.

– Qamashi tumanining olis tog'li "Qiziltom" qishlog'idan favqulodda murojaat tushdi. Odamlar qor qurshovida qolgan. Ularga yo'l ochish uchun zudlik bilan yo'lga chiqaymiz, – degan javobni eshitdim.

Bir lahzada ham o'ylamadim.

– Men ham boraman, – dedim

Mirzohid aka menga jiddiy tikildi.

– U yerning sovuqi oddiy sovuq emas. Tunashga sharoit yo'q. Yo'l ham oson emas...

Ammo ichimdagi xizmat burchi barcha ogohlantirishlardan ustun keldi. O'sha paytda meni oldinda qanday mas'uliyatlar, qanday sinovlar kutayotganini tasavvur ham qilmagandim.

Agar bu voqealarni hech qanday joy nomini aytmay hikoya qilsam, ko'pchilik uni Sibir, Shimol yoki Arktikada sodir bo'lgan, deb o'ylashi aniq. Chunki ko'z o'ngimizda kechgan manzara aynan shunday edi: uch qavatli uy balandligidagi qor

uyumlari, tinimsiz izg'irin, muzlab qolgan ichimlik suvlari, qor ko'chkilari, jarlikka sirpanib tushgan buldozerlar, tun-u kun davom etgan kurash...

Ammo buning barchasi uzoq shimolda emas, quyoshi bilan tanilgan, issiq iqlimli O'zbekistonning Qashqadaryo viloyatida, Qamashi tumanining olis Qiziltom qishlog'i sari olib boradigan tog' yo'llarida sodir bo'ldi. Shu bois bu safar menga yana bir haqiqatni anglatdi: tabiatning qudrati hudud tanlamaydi. U insonni istalgan joyda sinashi mumkin.

Keyinroq ma'lum bo'ldiki, vaziyat nihoyatda jiddiy edi. Viloyat hokimi Murodjon Azimovning topshirig'i bilan Shahrisabz va Nishon tumanlaridan ikkita qudratli buldozer Qiziltom qishlog'i tomon yo'lga chiqarilgan ekan.

Tog'ni uzoqdan tomosha qilgan odam uchun buldozerni bir hududdan boshqasiga olib borish oddiy texnik ishdek tuyulishi mumkin. Ammo qalin qor bosgan, tik qoyalar va muzlagan yo'llar oralab o'nlab tonna vaznga ega texnikani manzilga yetkazish naqadar og'ir va xavfli vazifa ekanini o'sha safarda o'z ko'zim bilan ko'rdim.

2026-yil 1-fevral. Tungi soat ikki.

Qorong'ilik bag'rida motorlar ovozi yangradi va biz yo'l tanlamas avtomobillarda Qiziltom sari yo'lga chiqdik. O'nlab tonna vaznga ega trillerlar muzlagan, sirpanchiq yo'llarda atigi 30 kilometr tezlikda, har bir metrni hisoblab harakatlanaardi. Qamashi markazidan Ko'kbuloq qishlog'igacha bo'lgan qariyb 80 kilometrlik masofani bosib o'tishning o'zi to'rt soatdan ortiq vaqtimizni oldi. Biz oldinga bir kilometr siljiasak, qor ortimizdan o'sha bir kilometrni yana yutib yuborardi. Go'yo tog' bizni ichkariga chorlayotgan, ammo ortga qaytish yo'lini esa sekin-asta o'chi-rib borayotgandek edi.

Biz bilan bir safda Favqulodda vaziyatlar boshqarmasining 9 nafar harbiy xizmatchisi, 4 nafar professional qutqaruvchi, Qamashi tumani hokimligi mas'ullari, mahalla faollari hamda tog'ning har bir so'qmog'ini besh qo'liday

biladigan mahalliy haydovchilar bor edi. Ularning oziq-ovqati, yoqilg'isi, issiq kiyimlari va barcha zarur jihozlari ortdan kelayotgan transport vositalari orqali yetkazilishi rejalashtirilgandi. Ammo yo'l ortimizdan yopilib borayotgan ekan, bu ta'minot uzilishi mumkin edi. Bu esa faqat yo'lning berkilib qolishi emas, balki butun qutqaruv guruhining tog' bag'rida tashqi yordamdan uzilib qolishi degani edi... Bir tomondan qor qurshovida qolgan insonlar... Ikkinchi tomondan esa ularga yordamga shoshilgan qutqaruvchilarning o'zi xavf ostida.

O'sha kecha biz sakkiz kishi Qiziltom yaqinidagi qishloqda istiqomat qiluvchi fidoyi ustoz – Nodir aka xonadonida tunadik. Viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig'i, polkovnik Farhod Mirzayev, Qamashi tumani hokimi Xurshid Usmonov va boshqa rahbarlar esa qishloqdagi boshqa xonadonlarda tunab, tong otishini kutishardi. Ammo o'sha tunni "tunadik" deyish qiyin. To'g'risini aytsam, qirq yildan oshiq umrim davomida bunaqa sovuqni na ko'rganman, na his qilganman. Tashqaridagi izg'irin devorlardan o'tib, uy ichiga kirardi. Pechka yonib turgan bo'lsa-da, uning harorati sovuqning qahrini yenga olmasdi. Sovuq nafaqat badanimizni, balki suyak-suyagimizni zirqiraytib yuborardi. Qo'llarimiz muzlab qolgan, oyoqlarimizni esa qanchalik o'rasak ham isita olmasdik. Uy ichida bo'lsak-da, go'yo ochiq osmon ostida yotgandek edik.

Tong yorishishi bilan yana yo'lga tushdik. "Hunter" avtomobili haydovchisi Sherari aka bizni ayri yo'lgacha olib bordi. Ikki qudratli buldozer Maydanak tomondan Qiziltom sari qalin qor bag'rini yorib, metrma-metr yo'l ochib borardi. Taxminan bir kilometrcha yo'l ochilgach, hech kim kutmagan hodisa yuz berdi. Avval bir buldozer sirpandi. Ortidan ikkinchisi ham. Bir necha soniya ichida ikkala buldozer ham muzlagan yo'ldan chiqib, jarlik tomon sirg'alib ketdi... Vaqt go'yo to'xtab qolgandek bo'ldi. Hech kim gapirmadi. Faqat shamolning uvillashi va qorning shitirlashi eshitilardi. Ko'z oldim qorong'ilashdi. Uni inson kuchi bilan chiqarib bo'lmadi. Yangi texnika olib kelish esa kunlar talab qilishi mumkin edi. Shamol yuzimizga pichoq tig'iday urilar, ochiq qolgan terini tilib o'tayotgandek achishtirardi.

O'sha og'ir lahzada viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig'i, polkovnik Farhod Mirzayev hamda Qamashi tumani hokimi Xurshid Usmonov vaziyatni bir zumda baholab, qat'iy xulosaga kelishdi.

– Agar hozir chora ko'rmasak, bu buldozerlarni ham qor bosadi. Shundan keyin ularni chiqarishning iloji bo'lmaydi...

Ular ortiqcha vaqt yo'qotmay shtab tomon yo'l olishdi.

O'sha paytda Maydanak turizm mas-kani hududida yirik qurilish kompaniyasi tomonidan keng ko'lamlı bunyodkorlik ishlari olib borilayotgan edi. Yo'l-yo'lakay ular qurilish maydonidan uncha uzoq bo'lmagan joyda kutilmagan manzaraga duch kelishdi. Korxonaga qarashli qudratli buldozer va yuklagich qalin qor ostida qolgan suv tashuvchi maxsus avtomobilni tortib chiqarishga urinayotgan edi. Bu biz uchun so'nayotgan umidning yana qayta yonishiga o'xshardi.

Rahbarlar shu yerning mas'ullari – Alisher va Sevdar ismli yigitlar bilan uchrashib, vaziyatni batafsil tushuntirishdi. Jarlikka tushib ketgan ikki buldozerni chiqarish uchun yordam so'rashdi. Quruvchilar bir zum ham ikkilanishmadi.

Kutilmaganda tog' bag'rini larzaga keltirgan gumburlash eshitildi. Avvaliga hech kim nima bo'layotganini anglay olmadi.

Keyin esa oppoq ulkan qor massasi qoya bag'ridan uzilib, mislsiz tezlikda pastga yopirildi. Qor ko'chkisi... Hammasi bir necha soniya ichida sodir bo'ldi. Ko'z ochib yumguncha suv tashuvchi avtomobil ham, uni tortayotgan buldozer ham oppoq qor ummoni ostida g'oyib bo'ldi. Oldimizda turgan texnikalar xuddi hech qachon mavjud bo'lmagandek qor bag'riga singib ketdi. Eng achinarlisi esa bizga yordam berishga shay turgan texnikaning o'zi tabiatning navbatdagi qurboniga aylangani edi. Bu voqea hammamizni dahshatga soldi. Ammo meni bir narsa yanada larzaga keltirdi.

Oradan atigi bir necha daqiqa oldin aynan o'sha joyda polkovnik Farhod Mirzayev va Qamashi tumani hokimi Xurshid Usmonov quruvchilar bilan turib, vaziyatni muhokama qilayotgan edi. Ular shtab tomon qaytib ketgan zahoti qor ko'chkisi yuz berdi. Bu tasodif emasdi. Har safar o'sha daqiqalarni eslasam, tanamni titroq bosadi. Agar ular yana o'n daqiqa ushlanib qolganida...

(Davomi kelgusi sonlarda...)

Sohibjon VAYITOV,
Qashqadaryo viloyati
FVB Axborot xizmati rahbari

INSON UCHUN UY ENG TINCH, ENG ISHONCHLI MASKANDIR. OILA A'ZOLARI KUN BO'YI TASHQI HAYOT TASHVISHLARIDAN SO'NG O'Z XONADONIGA QAYTIB, OSOYISHTALIK TOPISHNI ISTAYDI. BIROQ BA'ZAN BIRGINA E'TIBORSIZLIK, VAQTIDA SEZILMAGAN GAZ HIDI YOKI NOSOZ ELEKTR SIMI ANA SHU OSOYISHTALIKNI BIR ZUMDA DAHSHATGA AYLANTIRISHI MUMKIN. AYNIQSA, GAZNING SIZIB CHIQISHI NATIJASIDA UNING YOPIQ JOYDA TO'PLANISHI YOKI ELEKTR JIHOZLARIDAGI QISQA TUTASHUV OQIBATIDA YUZ BERADIGAN CHAQNASH VA YONG'INLAR KATTA XAVF TUG'DIRISHI HECH GAP EMAS.

Chaqnash ko'pincha kutilmaganda sodir bo'ladi. Ammo uning kelib chiqishiga sabab bo'ladigan holatlar odatda oldindan mavjud bo'ladi: gaz sizib chiqadi, xonada to'planadi, elektr simlari qiziydi, rozetka uchqunlaydi, bir qurilmaga ortiqcha yuklama beriladi. Inson ana shu belgilarni o'z vaqtida payqasa, katta fojeaning oldini olish mumkin. Shu bois uy xavfsizligi faqat tegishli xizmatlar yoki mutaxassislarning vazifasi deb qaralmasligi kerak. Har bir xonadon sohibi gaz va elektr jihozlaridan foydalanish qoidalarini bilishi, bolalarni ham xavfsizlikka o'rgatishi zarur. Quyidagi o'nta muhim tavsiya chaqnash, yong'in va boshqa ko'ngilsiz hodisalarning oldini olishga yordam beradi.




GAZ HIDINI HECH QACHON E'TIBORSIZ QOLDIRMANG

Gazning tabiiy holda hidi bo'lmaydi. Uni sezish oson bo'lishi uchun maishiy gazga maxsus hid beruvchi modda qo'shiladi. Demak, uyda gaz hidini sezgan zahoti buni oddiy holat deb qabul qilish mumkin emas.

Agar gaz hidi sezilsa, avvalo, vahimaga tushmasdan gaz manbasini aniqlashga harakat qilish lozim. Gaz plitasi yoki boshqa jihozlarning jo'mraklari ochiq qolmagani tekshirish kerak. Imkon bo'lsa, gaz berilishini to'xtatish, deraza va eshiklarni ochib xonani shamollatish zarur.

Eng muhimi, gaz hidi kelayotgan joyda gugurt yoki zanjigalka yoqish mutlaqo mumkin emas. Elektr tugmalarini bosish, chiroqni yoqish yoki o'chirish, ayrim elektr jihozlarini ishga tushirish ham xavf tug'dirishi mumkin. Chunki gaz havo bilan aralashib, ma'lum miqdorda to'plangan paytda juda kichik uchqun ham chaqnashga sabab bo'lishi ehtimoli bor.

Gaz hidi sezilgan xonada birinchi navbatda olov manbasini yuzaga keltirmaslik va xonani shamollatish haqida o'ylash kerak.



GAZ USKUNALARINI O'ZBOSHIMCHALIK BILAN TA'MIRLAMANG

Ba'zan odamlar gaz plitasidagi, shlangdagi yoki boshqa ulanish joyidagi nosozlik-




ni o'zlari bartaraf etishga urinadilar. "Bir oz mahkamlab qo'ysam bo'ldi", degan fikr jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Gaz jihozlari bilan bog'liq nosozlikni mutaxassis ko'rish maqsadga muvofiq. Ayniqsa, gaz shlangining eskirishi, yorilishi yoki ulanish joyining bo'shashishi gaz sizib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun jihozlarni va ulanishlarni vaqti-vaqti bilan ko'zdan kechirish zarur.

Gaz plitasidan foydalangandan keyin uning jo'mraklari yopilganini tekshirish odatga aylanishi kerak. Uyqu oldidan yoki uzoq muddatga uyda hech kim qolmaydigan vaziyatlarda gaz jihozlarini yana bir bor nazorat qilish foydadan xoli emas.

Oddiy ehtiyotkorlik ba'zan katta falokatning oldini oladi.



BIR ROZETKAGA HADDAN TASHQARI KO'P JIHOZ ULAMANG

Elektr jihozlaridan foydalanishda ham ko'plab xavf-xatarlar mavjud. Ayniqsa, bir dona rozetkaga uzaytirgichlar orqali bir nechta kuchli elektr jihozlarini ulash simlarning qizib ketishiga olib kelishi mumkin.

Isitgich, elektr choynak, dazmol, kir yuvish mashinasi va boshqa quvvati yuqori jihozlarni bitta tarmoqqa haddan tashqari yuklash xavfli. Rozetka qizishi, simning erishi yoki izolatsiyaning shikastlanishi qisqa tutashuvga sabab bo'lishi mumkin.

Agar rozetka atrofida qizish, kuygan hid yoki g'alati shovqin sezilsa, buni e'tiborsiz qoldirmaslik kerak. Bunday jihozdan foydalanishni davom ettirish o'rniga, uni tekshirtirish lozim. Elektr tarmog'i ham cheksiz yuklamaga mo'ljallanmaganini unutmaslik zarur.

ESKIRGAN VA SHIKASTLANGAN SIMLARNI VAQTIDA ALMASHTIRING

Uy ichidagi elektr simlari ham vaqt o'tishi bilan eskiradi. Ularning qoplamasi yorilishi, uzilishi yoki boshqa shikastlanishlar yuz berishi mumkin. Ayniqsa, simlarni gilam ostidan o'tkazish, eshik orasida qoldirish yoki ustiga og'ir buyum qo'yish

CHAQNASH –

YONG'INDAN XAVFLI



xavfni oshiradi. Shikastlangan simni oddiy izolyatsiya lentasi bilan o'rab, yillar davomida ishlatish to'g'ri emas.

Nosoz elektr tarmoqlarini malakali mutaxassis yordamida ta'mirlash yoki almashtirish lozim.

Uyda rozetka va kalitlar bo'shashib qolgan bo'lsa, uchqun chiqsa yoki qizisa, "hali ishlayapti-ku" deb foydalanishni davom ettirish mumkin emas. Aynan shunday mayda tuyilgan nosozliklar katta muammolarga sabab bo'lishi mumkin.



ELEKTR QURILMALARINI NAMLIK VA SUV MANBALARIDAN ASRANG

Dazmol, elektr isitkich, elektr plitasi va boshqa qiziydigan jihozlarni yoqilgan holda qarovsiz qoldirish xavf tug'diradi. Ayniqsa, uyda kichik bolalar bo'lsa, bu masalaga yanada jiddiy qarash kerak.

Uydan chiqishdan oldin ayrim jihozlarni o'chirilganini tekshirish foydali odatdir. Elektr choynak, dazmol yoki isitkich ishlashda davom etib qolsa, ularning yaqinidagi yonuvchan buyumlar ham xavf ostida qolishi mumkin.

Telefon yoki boshqa qurilmalarni quvvatlantirish moslamalarini ham uzoq vaqt nazoratsiz qoldirmaslik maqsadga muvofiq. Ayniqsa, shikastlangan yoki sifatsiz zaryadlash moslamalari qizib ketishi mumkin.

Uy xavfsizligi ko'pincha bir necha soniyalik tekshiruvdan boshlanadi.

Elektr va suvning bir-biriga yaqinligi xavfli holatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Nam qo'l bilan rozetka, elektr kaliti yoki jihozlarga tegishdan saqlanish lozim.

Vannaxona, oshxona va boshqa nam joylarda elektr jihozlaridan foydalanishda yanada ehtiyotkor bo'lish kerak. Suv tomchilashi mumkin bo'lgan joyda elektr uzaytirgichlarini tashlab qo'yish ham xavfsiz emas.

Agar biror elektr jihoziga suv tegsa, uni ishlatishda shoshilmaslik, avvalo xavfsiz holatga keltirish va zarur bo'lsa mutaxassisga murojaat qilish kerak.

Bolalarga ham elektr jihozlariga ho'l qo'l bilan tegmaslik, rozetkalarga turli buyumlarni tiqmaslik kabi oddiy qoidalarni erta yoshdan o'rgatish muhim.



UYDAN CHIQISH OLDIDAN "XAVFSIZLIK TEKSHIRUVI"NI ODAT QILING

Har bir oilada uyqu oldidan yoki uydan chiqishdan avval qisqa xavfsizlik tekshiruvi bo'lishi kerak. Bu bir necha daqiqani oladi, xolos.

Gaz jo'mraklari yopiqmi? Elektr isitkich yoki dazmol o'chirilganmi? Rozetkada qizib turgan jihoz yo'qmi? Shikastlangan sim ko'rinmayaptimi? Oshxonada gaz hidi sezilmayaptimi?

Ana shunday savollarni o'ziga berish insonda xavfsizlik madaniyatini shakllantiradi. Vaqt o'tishi bilan bu tekshiruv oddiy odatga aylanadi.

Ayniqsa, xonadondagi derazalarga panjara o'rnatilgan bo'lsa, favqulodda holatda odamlar tashqariga chiqishi uchun chiqish yo'llari haqida ham oldindan o'ylab qo'yish kerak. Zarurat tug'ilganda eshik va derazalardan xavfsiz chiqish imkoniyati mavjud bo'lishi muhim.

Gaz to'planishi oqibatida yuz beradigan chaqnash yoki elektr asboblardagi qisqa tutashuv ko'pincha bir zumda sodir bo'lgandek tuyuladi. Aslida esa uning ortida vaqtida e'tibor berilmagan nosozlik, eskirgan sim, ochiq qolgan gaz jo'mragi yoki oddiygina beparvolik turishi mumkin.

Xavfsizlik katta va murakkab ishlaridan boshlanmaydi. Gaz hidini sezganda loqayd bo'lmaslikdan, rozetkaga ortiqcha jihoz ulamaslikdan, shikastlangan simni almashtirishdan, elektr jihozlarini qarovsiz qoldirmaslikdan boshlanadi.

Uyimizdagi har bir gaz jihozi, har bir rozetka va elektr simi e'tibor talab qiladi. Chunki xonadon xavfsizligi – bir kishining emas, butun oilaning va yana qo'shnilarining tinchligi, hayoti bilan bog'liq masaladir.

Shuni unutmaylik: chaqnash kutilmaganda sodir bo'lishi mumkin, ammo uning oldini olish ko'pincha o'z qo'limizda. Ehtiyotkorlik – qo'rquv emas, hayotga bo'lgan mas'uliyatdir.

Guli IKROM qizi,
jurnalist

SOG'LOM HARAKAT —

BAXTLI HAYOT GAROVI

ERTALAB UYG'ONIB, KARAVOTDAN TURISHGA SHOSHILGANINGIZDA TIZZANGIZDA, YELKANGIZDA YOKI BARMOQLARINGIZDA G'ALATI BIR OG'RIQ SEZASIZMI?

ZINADAN TUSHAYOTGANDA TIZZANGIZ “SHIQIRLAB” KETADIMI? AGAR JAVOBINGIZ “HA” BO'LSA, BILINGKI, SIZ YOLG'IZ EMASSIZ. DUNYO BO'YICHA YUZ MILLIONLAB ODAMLAR, JUMLADAN, BIZNING YURTDOSHLARIMIZ HAM BO'G'IM KASALLIKLARI BILAN KURASHMOQDA. ENG ACHINARLISI SHUNDAKI, BU MUAMMO ENDILIKDA FAQAT KEKSALARNING EMAS, BALKI 30 YOSHLI, HATTO BA'ZAN YANADA YOSH ODAMLARNING HAM “HAMROHI”GA AYLANIB ULCURGAN.

Bo'g'imlar – bizning tanamizdagi harakatni ta'minlovchi murakkab uzviy mexanizm. Ular ikki yoki undan ortiq suyakni bir-biriga bog'lab, harakatlanish imkonini beradi. Har bir bo'g'im tog'ay to'qimasi, sinovial suyuqlik (bo'g'imni moylovchi tabiiy “moy”), bog'lamlar va mushaklar bilan o'ralgan. Vaqt o'tishi bilan yoki turli sabablar ta'sirida bu tizim izdan chiqishi mumkin – natijada og'riq, shish, harakat cheklanishi kabi alomatlar paydo bo'ladi. Eng ko'p uchraydigan bo'g'im kasalliklari qatoriga artroz (bo'g'im tog'ayining yemirilishi), artrit (bo'g'imning yallig'lanishi), podagra (siydik kislotasi tuzlarining bo'g'imda to'planishi) va osteoxondroz (umurtqa oralig'idagi tog'aylarning zaiflashishi) kiradi. Ularning har biri o'ziga xos sabab va rivojlanish yo'liga ega bo'lsa-da, umumiy xavf omillari ko'p jihatdan bir-biriga o'xshaydi.

Afsuski, so'nggi yillarda bu muammoning yosharib borayotgani tibbiyot mutaxassislarini ham tashvishga solmoqda. Ilgari bo'g'im og'rig'i asosan 50 yoshdan oshgan kishilarning muammosi hisoblansa, bugungi kunda ofis xodimlari, dasturchilar, haydovchilar va hatto talabalar orasida ham bo'g'imlardan shikoyatlar tobora ko'payib bormoqda. Buning sababi esa uzoq davomli o'tirish, harakatsizlik, noto'g'ri ovqatlanish va doimiy stress kabi zamonaviy hayot tarziga xos omillar bilan chambarchas bog'liq.

Bo'g'im kasalliklarining kelib chiqishida bir nechta asosiy omil rol o'ynaydi. Birinchidan, yillar o'tishi bilan bo'g'im tog'ayi yupqalashadi, sinovial suyuqlik miqdori kamayib boradi, ayrim hollarda tezlashib ketadi. Ikkinchidan, ortiqcha vazn muhim omil hisoblanadi – har bir qo'shimcha kilogramm, ayniqsa tizza va son bo'g'imlariga tushadigan yukni sezilarli darajada oshiradi, vazni ortiqcha odamlarda artroz xavfi bir necha barobar yuqori bo'ladi. Harakatsiz turmush tarzi ham xavf omillaridan biri: kompyuter oldida soatlab o'tirish, jismoniy faoliyatning yetishmasligi mushaklarni zaiflashtiradi, bu esa bo'g'imga tushadigan yukni noto'g'ri taqsimlashga olib keladi. Aksincha, ortiqcha jismoniy zo'riqish ham xavfli – og'ir jismoniy mehnat, sportda noto'g'ri texnika bilan mashq qilish yoki bir xil harakatni doimiy takrorlash (masalan, kompyuterda yozish, konveyerda ishlash) bo'g'imlarni tez charchatadi va shikastlanishga olib kelishi mumkin. Irsiy moyillik ham muhim rol o'ynaydi: agar oila a'zo-

larida artrit yoki artroz bo'lsa, bu kasallikka moyillik avloddan avlodga o'tishi mumkin. Noto'g'ri ovqatlanish, ya'ni tuzli, yog'li va shirin taomlarga o'ch bo'lish, ayniqsa, purinlarga boy oziq-ovqatlar (go'sht mahsulotlari, konservalar) podagra rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Sovuq va nam muhitda uzoq vaqt qolish yoki shunday joylarda ishlash bo'g'im kasalliklarining kuchayishiga olib keladigan omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, issiq havo vaqtida xonani o'ta muzlatib ishlash asta-asta kasallikni rivojlantiradi. Shuningdek, yallig'lanish va infeksiyalar ham sabab bo'lishi mumkin: ba'zi hollarda o'tkazilgan infeksiyon kasalliklar organizmning immun tizimini “chalgitib”, u o'z bo'g'imlariga hujum qila boshlaydi – bu autoimmun artritning kelib chiqish mexanizmi hisoblanadi.

Bo'g'im kasalliklarining dastlabki belgilarini ko'pincha odamlar e'tiborsiz qoldiradi. Ammo harakat paytida yoki tinch holatda bo'g'imda sezilgan og'riq, ertalabki qotib qolish hissi (ayniqsa 30 daqiqadan ortiq davom etsa), bo'g'im atrofidagi shish va qizarish, harakat doirasining cheklanishi, bo'g'imda “shiqirlash” yoki “g'ijirlash” tovushlari, shuningdek, umumiy holsizlik va ba'zan tana haroratining ko'tarilishi kabi holatlar shifokorga murojaat qilish uchun jiddiy sabab bo'lishi kerak.

Bo'g'im kasalliklarini davolash bosqichma-bosqich yondashuvni talab qiladi. Birinchi navbatda aniq tashxis qo'yish muhim: buning uchun rentgen, ultratovush tekshiruvi, ba'zan MRT yoki qon tahlillari o'tkaziladi. Davolashning asosiy yo'nalishlaridan biri dori-darmon bilan davolash bo'lib, og'riq va yallig'lanishni kamaytiruvchi vositalar, tog'ay to'qimasini tiklashga yordam beruvchi preparatlar shifokor tavsiyasi asosida qo'llaniladi. Muhim jihat shundaki, bunday dorilarni o'zboshimchalik bilan, uzoq muddat qabul qilish oshqozon va boshqa a'zolarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Fizioterapiya – elektroforez, lazer bilan davolash, magnitoterapiya kabi usullar qon aylanishini yaxshilab, og'riqni kamaytirishga yordam beradi. Jismoniy reabilitatsiya, ya'ni maxsus mashqlar majmuasi bo'g'im atrofidagi mushaklarni mustahkamlab, harakat doirasini tiklashda katta rol o'ynaydi – bu ko'pincha eng samarali, ammo eng ko'p e'tibordan chetda qoldirilgan davolash usuli hisoblanadi. Og'ir holatlarda esa jarrohlik aralashuvi zarur bo'lishi mumkin: bo'g'im tog'ayi butunlay yemirilgan hollarda endoprotezlash, ya'ni bo'g'imni sun'iy protez bilan almashtirish

qo'llaniladi. Zamonaviy tibbiyotda bu operatsiya bemorga to'liq harakatchanlikni qaytarish imkonini beradi.

Ko'plab bemorlar an'anaviy davolash bilan bir qatorda tabiiy usullardan ham foydalanishni afzal ko'radi. Bunday usullar asosiy davolashni to'ldiruvchi vosita sifatida foydali bo'lishi mumkin, ammo ular shifokor nazorati va tavsiyasiz mustaqil davo sifatida qo'llanilmasligi kerak. Masalan, o'tkir og'riqda sovuq, surunkali og'riqda esa issiq kompress qo'llash tavsiya etiladi. Massaj qon aylanishini yaxshilab, mushak taranglashuvini kamaytiradi. Suzish va suv mashqlari bo'g'imga yuk tushmasdan mushaklarni mustahkamlash imkonini beradi. Zaytun yog'i yoki kunjut yog'i bilan yengil ishqalash mahalliy qon aylanishini rag'batlantiradi. Sarimsoq va zanjabil qo'shilgan taomlar tabiiy yallig'lanishga qarshi xususiyatga ega ekanligi haqida xalq tabobatida keng tarqalgan fikrlar bor.

Bo'g'im salomatligini saqlash uchun murakkab va qimmat choralar shart emas, ko'pincha kundalik odatlarni o'zgartirish yetarli. Avvalo, vazningizni nazorat qilib turing, chunki har bir ortiqcha kilogramm bo'g'imga qo'shimcha yuk beradi. Muntazam, ammo mo'tadil harakat qiling: kunlik yurish, yengil gimnastika, suzish bo'g'imlar uchun eng foydali mashqlar hisoblanadi, og'ir sport yoki, aksincha, butunlay harakatsizlik ikkalasi ham zararli. To'g'ri o'tiring va turing, uzoq vaqt bir xil holatda o'tirmang, har 40-50 daqiqada o'rningizdan turib, biroz harakat qiling. Ovqatlanishingizga e'tibor bering: sabzavot, mevalar, baliq, yong'oqlar kabi

yallig'lanishga qarshi xususiyatga ega mahsulotlarni ko'proq iste'mol qiling, tuzli va yog'li ovqatlarni kamaytiring. Suyuqlik iste'molini unutmang, chunki bo'g'im to'qimalari uchun organizmning suv bilan yetarli ta'minlanishi muhim ahamiyatga ega. Noqulay poyabzal bilan saqlanigan – ayniqsa ayollar orasida keng tarqalgan baland poyabzal tizza va son bo'g'imlariga ortiqcha yuk tushiradi. Sovuqdan himoyalarning, bo'g'imlarni yaxshi yopib yuring, izg'irinli kunlari uzoq vaqt tashqarida qolmang. Va eng muhimi, birinchi alomatlar – e'tiborsiz qoldirmang – bo'g'im og'rig'i “o'zi o'tib ketadi” deb umid qilib, kechiktirilmasligi kerak, chunki erta murojaat qilingan kasallikni davolash ancha oson va samarali bo'ladi.

Yiliga kamida bir marta profilaktik tibbiy ko'rikdan o'tish, ayniqsa 40 yoshdan oshgan kishilar uchun, bo'g'im muammolarini erta bosqichda aniqlash imkonini beradi.

Alohida ta'kidlash joizki, bo'g'im muammolari turli yosh va kasb guruhlarida turlicha namoyon bo'ladi. Sportchilar va og'ir jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchilarda ko'pincha shikastlanish oqibatida rivojlanadigan travmatik artroz uchraydi, ofis xodimlari va uzoq vaqt bir joyda o'tirib ishlaydiganlarda esa umurtqa pog'onasi va bo'yin-yelka sohasidagi muammolar ko'proq kuzatiladi. Keksa yoshdagi kishilarda esa tabiiy eskirish jarayoni bilan bog'liq artroz eng ko'p tarqalgan holat hisoblanadi. Shu bois, bo'g'im salomatligini saqlash bo'yicha tavsiyalar ham har bir toifa uchun o'ziga xos bo'lishi kerak, biroq umumiy qoida bitta: harakat va muvozanatli turmush tarzi har qanday yoshda ham bo'g'imlar uchun eng yaxshi “himoya qalqoni” bo'lib xizmat qiladi.

Bo'g'im kasalliklari sekin rivojlanib kattalashib boradigan muammo. Ular bir kunda paydo bo'lmaydi va bir kunda ham davolanmaydi. Bizning kundalik odatlarimiz – qanday ovqatlanishimiz, qanday harakat qilishimiz, vazn va sovuqqa munosabatimiz – bu kasalliklarning oldini olishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Sog'lom bo'g'imlar nafaqat erkin harakat, balki umuman to'la qonli faol hayotning garovidir. Shuning uchun bugundan boshlab o'z tanangizga, ayniqsa bo'g'imlaringizga g'amxo'rlik qilishni unutmang, chunki erta ehtiyot chorasini ko'rish kelajakdagi og'ir muammolarning oldini oladi.

Gulnora SHERMATOVA,
“Vaziyat” muxbiri



↖	Issiq yopin-chiq	↗		↖		Saran-jom-..., ozoda	↗	Agata Kristi izquvari Erkyul ...	↗	Kredit, ssuda	↗	Javob variantli imtihon	↖		↖	
	Poytaxti Ashxobod		Tropik yong'oq	Past bo'yli		O'rnak, ibrat	→					Kemalar poygasi		Ko'ylak "qulfi"		Vaqt o'lchagich
↖						Juni zo'r echki	↖	Italiya avtomobili		Bid'at, ...-sirim	↖					
	Tennischi quroli		Kumush ... pilla	Radiator-dagi muzlamaydigan eritma	→							Xanjar g'ilofi		Undan lo'mboz qilinadi		Takalluf, iltifot
↖			↓			Undovchi yozuv, chaqiriq	→				...zokat, ...fisa	↖		↓		↓
	Amerika yovvoyi oti	Bino, inshoot		Asosiy qon-tomiri	→			"Sichqon-ning ... ming tanga!"	→			Cho'p shaklidagi yozgich		Bankdan uy-joyga qarz olish		
↖		↓		↖	"Gapir, so'zla!"	Kazaklar sardori	→					52 hafta	→			
	Elchinni birinchi xotini	↖										Farmon-bibini kenja kelini	↖	Detektiv adib Edgar ...	→	
	Istan-bullik		Bahor oyi									↖				
↖				Institutda pul to'lab o'qish								Doimiy xaridor		Sanoq so'zi	→	
	Tovarni tarasiz og'irligi		Adib ... To'la	↓								↖				
↖			↓									Kompyuterni internetga ulaydi		Kamov vertolyoti (abbr.)	→	
Xokkey, suzish, kurash	Yumshoq pat	Yanchilgan don	→									Qimmatbaho tosh, aqiq	→			
↖	↓				Pyurebop sabzavot	↖		↖				↖	Qiziqchi ... Oxun		Kundalik nashr	Latviya markazi
"Olma ..., og'zimga tush!"		Iboli, hayoli	→			Gazeta, jurnal do'koni		"Vatan ...dan boshlanadi!"	↖	Yuzdagi muammolarning izi		Ko'pri (adabiy)	↖			↓
↖		↖			Qashqadaryo viloyati tumani	Tohir Sodiqov cholg'usi	→			↓	↓		Shoh o'rinsbosari		Efiopiya, Angola joylashgan qit'a	
	Uzudagi sifat muhri		Ilmsiz, avom	↖				Nimjon, zaif	→				"Hazilning ...i-zil!"	→		
↖			↖		Aktrisa ... Rame-tova	Ahmad ... Farg'oniy (alloma)	↓	Chayonni nayzasi	→			"... bo'lish yo'q!" ("ZO'R-TV")	→			
Sohib-qiron ... Temur	Bosmaxona harfi	Choy, ayron, kvas (umumiy)		"Choliqushi" qahramoni	↓	Olimpiada-96 shahri	→					↖	Ichra, uzra	AQSh shimolidagi shtat		Bekorchilik, quruq gap
↖		↓		"Eshitamani!" (tel.)	→			G'aroyib, qiziq	↖	Tantanali sh'ir, oda	Atos, Portos, ... (mushketyor)	→				↓
His-hayajon belgisi	Poytaxti Santyago	→				Qarmoq changagi	Joyida to'lov	→		↖	"Go'r-o'g'li", "Alpomish"		Volga daryosi irmog'i	→		
↖				Qalb, yurak	→			Vyetnamga qo'shni mamlakat	→			Qirchilama yosh	Foyda, bahra	→		
	"Chiqmagan jondan ..."	↖		↖		"HUGO ..." (atir)	→				Rizq-ro'z, ...-baraka	↖			Tabiiy ... zangori olov	
↖			Metall nishon		Uchar videokamera	...gora, ...lufar	Jajji, jimit	→					Zaharli baqa	→		
	Muzlangan yomg'ir		"Oy borib, ... qayt!"	→			Tugab bo'lgan, qolmagan	→			Darvozabon ... Dasayev	→				
	Sutkani yarmi	→			Baliq suyagi	→							To'y (antonim)	→		

YANGI BINO FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MUSTAQILLIGINING 35 YILLIGI ARAFASIDA TOSHKENT VILOYATINING O'RTACHIRCHIQ TUMANI FAVQULODDA VAZIYATLAR BO'LIMINING YANGI BINOSI FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI.

Yangi binoning tantanali ochilish marosimida Favqulodda vaziyatlar vaziri o'rinbosari, polkovnik Nuriddin Kadirov, shuningdek, viloyat hokimi o'rinbosari, tuman hokimi va boshqa mutasaddi tashkilotlar rahbarlari, faxriylar hamda shaxsiy tarkib ishtirok etdi. Albatta, bu bayram arafasida qutqaruvchilar uchun ajoyib tuhfa

bo'ldi. Ushbu bino qutqaruvchilar uchun zamonaviy yong'in-qutqaruv avtomobili, qutqaruv asbob-anjomlari va bugungi kun talabiga mos keladigan shinam ma'naviyat va ma'rifat o'quv xonalari, oshxona, yuvinish xonasi, yotoqxona, o'quv minorasi va sportzal kabi zamonaviy xizmat xonalari bilan jihozlangan.

So'ngi yillarda soha xodimlarining xizmat qilishlari uchun qulay shart-sharoit yaratishga qaratilgan e'tibor qutqaruvchilik kasbiga bo'lgan tashabbuslarning yorqin namunasidir. Tadbir jarayonida ishtirokchilar qutqaruvchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishishdi.

FVV Axborot xizmati



SAMARQANDGA SAYOHAT



Respublikamiz bo'ylab faxriylar bilan turli ma'naviy va madaniy tadbirlar Mustaqillik bayrami arafasida yanada qizg'in tus olgan. Ular bilan joylarda ochiq muloqotlar, uchrashuvlar, anjumanlar, ekskursiyalar tashkil etilayotgani keksa avlod vakillariga hamisha e'tibor yuksak ekanligini, qolaversa, fidoyi mehnat qilgan inson nafaqada ham qadr topishiga bir isbot.

Ana shunday tadbirlar doirasida Favqulodda vaziyatlar vazirligi Sirdaryo viloyati va Jizzax viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmalaridan faxriylarining Samarqand viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasiga tashrifi davomida mehmonlarni kutib olish marosimi tashkil etildi. Tashrif avvalida faxriylar Samarqand viloyati FVB boshlig'i polkovnik G'.Muxamedov bilan samimiy suhbatlashib, soha faoliyati tajriba va kasbiy faoliyatga oid fikr-mulohazalar almashdilar.

Shundan so'ng mehmonlar boshqarma faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Jumladan, situatsion markaz hamda Favqulodda vaziyatlarda boshqarish markazi tezkor-navbatchilik xizmati faoliyati bilan o'rganilib, Favqulodda vaziyatlarda tezkor munosabat bildirish va boshqaruv jarayonlari haqida ma'lumotlar berildi.

Tashrif davomida boshqarmada tashkil etilgan kutubxona faoliyati bilan ham tanishilib, undagi tarixiy albomlar va hujjatlar ko'zdan kechirildi. Shuningdek, boshqarma muzeyi sport zali hamda turli yo'nalishdagi axborot stendlari namoyish etildi.

Faxriylar boshqarmadagi qutqaruv otryadida yaratilgan shart-sharoitlar va zamonaviy texnikalar bilan ham yaqindan tanishdilar. Otryad faoliyati, xodimlar uchun yaratilgan imkoniyatlar hamda zamonaviy texnik vositalar haqida batafsil ma'lumot berildi. Imom Al-Buxoriy majmuasidagi otryad faoliyati bilan

tanishildi. Shuningdek, mehmonlar Imom Al-Buxoriy majmuasini ziyorat qilib, ushbu qadamjoning tarixiy va ma'naviy ahamiyati bilan yaqindan tanishdilar. Samarqand viloyati FVB Faxriylar kengashi tomonidan tayyorlangan hujjatlar, shuningdek faxriylar kengashi raisi tomonidan ishga yangi qabul qilingan yoshlar bilan yakka tartibdagi tayyorganlik bo'yicha ishlab chiqilgan uslubiy qo'llanma kitobi bilan tanishtirildi. Tashrif yakunida mehmonlar uchun "bir piyola choy" atrofida samimiy suhbat tashkil etilib, o'zaro fikr va tajriba almashildi.

Mazkur tashrif o'zaro tajriba almashish, soha tarixini asrab-avaylash, faxriylar tajribasini yosh avlodga yetkazish hamda ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarni targ'ib etish nuqtai nazaridan mazmunli bo'ldi.

Ismoil AMONILLAYEV,
Samarqand viloyati FVB
Faxriylar kengashi raisi

FAXRIYLAR TAJIRIBASI – MAHORAT MAKTABI

Toshkent viloyati Favqulodda vaziyatlar bosh boshqarmasi Faxriylar kengashi raisi Fahriddin Abdug'alilovich Abdumavlyanov boshchiligidagi Angren shahar Favqulodda vaziyatlar boshqarmasida uchrashuv tadbiri bo'lib o'tdi. Tadbirda F. Abdumavlyanov o'zining uzoq yillik boy tajribasi hamda ibratli hayot yo'lini yosh avlod vakillari bilan o'rtoqlashdi.

Shuningdek, tadbirda Toshkent viloyati FVB Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar bo'limi boshlig'i, mayor Y. S. Ziyatdinovich hamda Angren shahar Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi shtab boshlig'i, podpolkovnik Adham Bayminovlar so'zga chiqib, sohada nuroniyatlarning o'rni va ahamiyati beqiyos ekanini ta'kidladilar.

Tadbir mehmonlari: iste'fodagi podpolkovnik I. Samatov, mayor N. Saparov, mayor R. O'razaliyev, kapitan Z. Saparov hamda kapitan B. Anarchayevlar shaxsiy tarkib xodimlari bilan samimiy suhbat qurib, o'z kasbiy faoliyatlaridagi amaliy tajribalari va ibratli misollar bilan bo'lishdilar.

Suhbat yakunida F.Abdumavlyanov va shaxsiy tarkibning yakdil ovozi hamda istagiga ko'ra, iste'fodagi I.Samatov Faxriylar kengashi raisining Angren shahridagi vakili etib saylandi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ustozlar izidan borgan va ularning o'g'itlariga amal qilgan shogird hech qachon to'g'ri yo'ldan adashmaydi.

Shahnoza YARASHEVA,
Toshkent viloyati AKB OFVB 52-KQQ
xizmatchi navbatchi dispetcheri

Vaziyat

gazetasi



MUASSIS:
**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FAVQULODDA VAZIYATLAR
VAZIRLIGI**

Bosh muharrir:
podpolkovnik
Rustam ALIMOV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

Gazeta tahririyat kompyuterxonasida sahifalandi.

Gazeta har haftaning payshanba kuni chiqadi. Topshirish vaqti – 15.00. Topshirildi – 15.00.

Bosh muharrir o'rinbosari:
Dilmurod DO'ST

Navbatchi muharrir:
D.Do'stbekov
Musahhih:
B. Yunusova
Sahifalovchilar:
M. Hamroyev
B. Salohiddinov

Tahririyat manzili:
100084, Toshkent shahri,
Yunusobod tumani,
Sh. Rashidov ko'chasi, 17-uy.

@vaziyat_muhofaza

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2007-yil 3-yanvarda 0096-son bilan ro'yxatga olingan.

Gazetadan olingan materiallar manbasi ko'rsatilishi shart.

Gazeta "Sharq" NMAK bosmaxonasida bosildi.

Bosmaxona manzili:

Toshkent shahri, Mirobod tumani,

Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Buyurtma № G-849.

Bichimi: A3, hajmi: 4 b.t.

Adadi – 20100 nusxa.

ISSN 2091-5292

Gazetani elektron ko'rinishda o'qishingiz mumkin:



Indeks:

yakka obunachilar va tashkilotlar uchun – 382